

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND
DAVLAT UNIVERSITETI**

HUQUQSHUNOSLIK FAKULTETI

МАЛАКАВИЙ БИТИРУВ ИШИ.

«DAVLAT HUQUQI» KAFEDRASI

MAVZU: Avesto huquqining tarixiy manbai

BAJARUVChI: 4-kurs kunduzgi

bo'lim talabasi Atabayev Begzod

ILMIY RAHBAR: dos.M.Qo'ldoshev

SAMARQAND – 2013

Mavzu: Avesto huquqining tarixiy manbai.

Reja.

Kirish.

1. Avestoning yaratilishi va tuzilishi.

2. “Avesto”dagi siyosiy-huquqiy g‘oyalar. Ijtimoiy - iqtisodiy tuzumning tartibga solinishi.

3. Avestoda inson huquqlari masalasi.

4. Avestoda “ordaliya” instituti.

5. Vandidodda jinoyatlar tasnifi.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

Kirish.

"Avesto", ya'ni "Hayot yo'riqnomasi" deb atalgan bu muazzam, nodir kitob,— deb ta'kidlaydi I.A.Karimov,— ayni zamonda bu qadim o'lkada, bugun biz yashab turgan tuproqda buyuk davlat, buyuk madaniyat, buyuk ma'naviyat bo'lganidan guvohlik beruvchi bebaho tarixiy xujjat bo'lib, ming yillar, asrlar davomida avlod ajdodlarimiz uchun ma'naviy-ruhiy tayanch, kuch-quwat manbai bo'lib kelgan"¹.

"Avesto" kitobi o'zining ma'no va mohiyati jihatidan tengi yo'q yozma manbadir. Bu muqaddas kitobda jo'g'rofiy, tarixiy joy nomlari, Sipiytmon Zardusht haqida 70 dan ziyod afsona va rivoyatlar (ulardan ayrimlari ushbu kitobga ilova qilinmoqda), kosmogoniya, falsafa, tibbiyot, iqtisod, pedagogika, huquqshunoslik va boshqa fanlarga oid ma'lumotlar berilgan.

Zardushtning ta'limoti qabilachilik va yakka xudolikka sajda qilishga qaratilgan bo'lib, undan adolat, mehnat va mehnatsevarlik, halollik, yaxshilik va ezgulik haqidagi fikrlar o'rin egallagan. Zardushtning ma'naviy-ahloqiy ta'limotida, yaxshi fikr (gumata), yaxshi so'z (gugta) va yaxshi ish (gvorishta)ga alohida e'tibor berilgan. U odamlarning teng huquqli bo'lib yashashi, bir-biriga yaxshi munosabatda bo'lishi va o'zaro yordam berishi tarafdori bo'lgan. Adolatsizlik, shafqatsizlik, zo'ravonlik, shuhratparastlik, tuhmat va hasadgo'ylik hamda va'daga vafosizlikni qattiq qoralagan.

Zardushtiylik ta'limotida muqaddas olovga gunohlarni tozalovchi sehrli kuch sifatida qaralgan. Suv, yer, olov va havo ulug'langan, bu tabiiy unsurlarni asrash, qadrlash va sof xolda saqlash insonning asosiy vazifasi ekanligi qayta-qayta ta'kidlangan.

Zardushtiylikning asosiy g'oyalarida dunyodagi barcha ishlar yaxshilik va yomonlik, yorug'lik va qorong'ilik o'rtasida kurashlarga bog'lab talqin qilinadi.

Ma'naviyatimiz sarchashmasi bo'lmish "Avesto"da tasvirlangan

¹

I.A.Karimovning "Avesto" kitobi yaratilganligining 2700 yitligiga bag'ishlanib barpo etilgan yodgorlik majmuini ochish marosimidagi

qavmlarning turmush tarzi, diniy mafkurasi, tili va adabiyoti, madaniyati, tabobati, davlatni boshqaruv va qonunchilik tizimi bizni bugun ham hayratda qoldiradi.

Umuman, Sipiytmon Zardusht yaratgan diniy ta'limot va "Avesto" dunyodagi ezgulik kitoblari orasida eng nodir manba bo'lib, u bir necha ming yillik davr davomida insoniyatning orzu-umidlarini, g'oyatda oliyjanob, ijobiy his va tuyg'ularini bedor etib, bepoyon hududlarda porloq ma'naviyat mash'ali bo'lib odamlar qalbini yaxshilik va ezgulik nuri bilan yoritib turibdi.

Ajdodlarimiz meros qoldirgan bu bebaho asarda ularning qadim zamonlardagi daviatchilik taraqqiyoti, diniy va dunyoviy mafkurasi, ijtimoiy-siyosiy, xududiy-iqtisodiy va madaniy-ma'naviy turmush tarzi atroflicha keng yoritilgan.

Asarning bu serqirra va sermazmun sohalarni bugungi davr talabidan chuqur o'rganish, tahlil qilish va tadqiq etish muhim ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatiga ega bo'lib, ushbu vazifalarni bajarish hozirgi olimlarning ajdodlarimiz oldidagi muqaddas burchidir.

Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Bu betakror asarning biz uchun ahamiyati — avvalo uning olis-olis davrlarda ham halqimizning milliy xususiyatlari va fazilatlari, umumbashariy qadriyatlar bilan doimiy uzviy bog'lanib ketganligini isbotlaydigan hayotbaxsh manba bo'lganligi uchun ham qimmatlidir.

Bir so'z bilan aytganda, biz bugun yangi hayot qurish va buyuk kelajak sari intilib yashayotgan ekanmiz, mana shunday manbalar o'zligimizni anglashda, buyuk tariximizdan ma'naviy ozuqa olib, g'urur-iftixor bilan yashashimizga, ertangi kunga katta ishonch bilan qarashga mustahkam zamin yaratadi, desak, hech mubolag'a bo'lmaydi"².

"Ezgu fikr, ezgu amal, ezgu so'z ulug'langan kitob" mavzusidagi 2001 yil 3 noyabrdagi nutqi // "Xalq so'zi", 2000, 6 noyabr.

¹ I.A.Karimovning "Avesto" kitobi yaratilganligining 2700 yilligiga bag'ishlanib barpo etilgan yodgorlik majmuini ochish marosimidagi

1. Avestoning yaratilishi va tuzilishi.

O'zbekistonning miloddan avvalgi 1-ming yillikning birinchi yarmiga oid tarixi ilk yozma manba "Avesto"da berilgan. Avestoda birinchi bo'lib, ushbu zaminda yashagan elatlar, xalqlar, afsonaviy qahramonlar, podsholar, hamda davlatlar, davlatlarning boshqaruv tizimi, xalqlarning mashg'uloti batafsil bayon etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "Avesto" xususida "Uchinchi ming yillik ibtidosi biz hozirgi O'zbekiston hududida qadimiy sivilizatsiyaning, davlatchilik va zardushtiylik davri dinining paydo bo'lishi va rivojlanishi nuqtai nazaridan bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan, umumiy insoniyat taraqqiyotida yorqin iz qoldirgan ikki shonli sananing guvohi bo'lamiz",- degan YuNeSKO Ijroiya Kengashining yakunlovchi 155-sessiyasida so'zlagan nutqida.

"Eng mo'tabar, qadimgi qo'lyozmamiz "Avesto"ning yaratilganiga 3000 yil bo'layapti. Bu nodir kitob bundan XXX asr muqaddam ikki daryo oralig'ida, mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlarga qoldirgan ma'naviy, tarixiy merosidir. Avesto ayni zamonda bu qadim o'lkada buyuk davlat, buyuk ma'naviyat, buyuk madaniyat bo'lganidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdirki, uni hech kim inkor etolmaydi".- deb yurtboshimiz tarixchi olimlar bilan suhbatda ta'kidlagan edilar.

Haqiqatan ham uch ming yillik tariximiz haqidagi, davlat paydo bo'lishi va uning boshqarilishi, odamlar o'rtasidagi munosabatlar, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash g'oyalari bilan sug'orilgan buyuk tarixiy-siyosiy-huquqiy manbadir.

"Avesto"da dunyoning yaratilishi, insonning kamol topishi, ezgulik uchun yovuz kuchlar bilan kurashi, erkinlik ijodkorlik va bunyodkorlik yo'lidagi orzulari o'z ifodasini topgan.

“Avesto” kitobi miloddan oldingi VI asrda yuzaga kelgan.

Beruniyning xabar berishicha, “Avesto”ning qo‘lyozmasi o‘n ikki ming molning terisiga oltin harflar bilan yozilgan ekan. Iskandar “Avesto”ni kuydirib tashlashdan oldin uning tib, astronomiyaga oid qismlarini yunon tiliga tarjima qildirgan. “Avesto”ning uch qo‘lyozma nus‘hasi bo‘lgan. Uning bir nus‘hasini Iskandar yo‘q qilib tashlagan. Bir nus‘hasi Yunonistonga jo‘natilgan. Bir nus‘hasini esa zoroastrizm e‘tiqodiga sodiq kishilar saqlab qolganlar. Ta‘qib va quvg‘in sharoitida uni saqlab qolish oson bo‘lmagan. Keyinchalik sosoniylar hukmronligi davrida (milodning III-VII asrlari) zoroastrizm rasmiy e‘tiqod sifatida tanilgan. Sosoniylar “Avesto”ni tiklash uchun uning mazmunini o‘rganish, hamda uni pahlaviy tilda yozib chiqishgan.

1755-1761 yillarda fransuz olimi Anketil Dyuperron Hindistonning Gujarat viloyatida eron zardushtiylarining avlodlari – parslarning urf-odatlarini va diniy marosimlari bilan tanishib chiqqan. Hamda eng asosiysi, fransuz olimi parslarning diniy yozuvlarini o‘qishga muvassar bo‘lgan.

Shundan “Avesto”ning hozirgi tahlil uchun asos nus‘hasi bunyod etilgan.

Avesto – buyuk huquqiy manba

Markaziy Osiyo xalqlarining tarixini Turon zamin hududida shakllangan eng qadim davrni o‘rganishda asosiy tarixiy-huquqiy manba – «Avesto», ya‘ni zardushtiylikning muqaddas kitobidir.

«Avesto»da zardushtiylik dinining qonun-qoidalari, farz va sunnatlar, Yazdoni pokning yaratuvchilik qudrati ta‘rifi-yu, madhi bilan birga ijtimoiy hayot, turli ijtimoiy tabaqalar, mavjud tuzum tartib-nizomlari, xotin-qizlar haq-huquqini e‘zozlash, oila dahlsizligi va mustahkamligiga erishish, ota-onaning farzand oldidagi, farzandlarning ota-ona oldidagi burchi haqida yozilgan.

«Avesto»da qadimda Sirdaryo va Amudaryo bo‘yidagi xalqlar tarixidan hikoya qiladi. Unda inson hayoti, turmush bilan bog‘liq juda ko‘p muammolarga to‘xtalgan. «Avesto»da jazo berish – diniy-etnik qoidalarga bo‘ysundirish vaqtidagi harakat ma‘nosida qo‘llanilib, xatti-harakat uchun

to'lovni anglatgan.

Mamlakatimiz tarixiga oid eng qadimgi yozma guvohliklarni o'zida mujassamlashtirgan «Avesto»da mintaqaning Xorazm (Kairizem, ayranam-vejo), Sug'diyona (sug'dlar makoni Gava), Marv (Mouru, Niso), Baktriya (Baxdi) kabi bir qancha tarixiy viloyatlar nomi keltirilgan. Bunda voqyealar bayoni Axurumazda nomidan berib boriladi: «Men Axurumazda eng avval makon va mamlakatlar sirasidan Ayranam-vejoni... so'ngra sug'dlar yashovchi Gavani, keyin esa Mourini va to'rtinchi bo'lib Baxdini, beshinchi bo'lib esa Mouru va Baxdi orasidagi Nisayini... yaratdim».

«Avesto»da keltirilgan bu makonlar katta bir viloyat sifatida shakllanib, o'zining jug'rofiy hududiga ega bo'lganligiga shubha yo'q. Mazkur jarayon mintaqadagi Amudaryo, Zarafshon, Mug'rob, Tajan, Kunduz kabi daryolar atrofida kechgan. Shunga ko'ra Xorazm, Baktriya, Ariya (Ariana), Parfiya, Girkaniya, Marg'iyona hamda Farg'ona kabi bir qancha viloyatlar bo'lib, ularni birlatirib turuvchi asosiy markaz Xorazi hisoblangan. Xorazmning eng qadimgi siyosi sulolalari siyovshlar degan rivoyatlar mavjud. Dastlabki «Avesto» 21 tarixi kitobdan iborat bo'lgan. Ayrim qismlari saqlanib qolgan: Yasna – «qurbonlik keltirish», Vispart – «hamma hukmronlar», Yasht – «qadrlash», «ulug'lash», Videvdat – «devlarga qarshi qonun» bo'lib, sosoniylar davrida tahlil qilingan.

Yasna kitobi 72 bobdan iborat bo'lib, ulardan 17 tasi «Gotalar», payg'ambar Zaratushtraning «muqaddas qo'shiqlari», uning diniy nasihatlaridan iborat.

Vispart 24 bobdan iborat bo'lib, zardushtiylarning ayrim xudolariga bag'ishlangan madhiyalardir. Ular bayram va diniy marosimlarda ijro etilgan.

Yashtning 21 bobida yozuvsiz zamonlarga oid eroniy qabilalarning tasavvurlari saqlangan. Bu kitobida afsonaviy qahramonlarga va ulug' xudolarga bag'ishlangan madhiyalar to'plangan. Qadimgi qabilalar og'zaki ijodi asosida Yasht boblari paydo bo'lgan Videvdat to'liq saqlangan kitobdir, uning tarixiy

sanasi Yasna yoki Yasht qismlariga nisbatan nisbatan yosh hisoblanadi. Videvdat 22 ta bobdan iborat. «Avesto»ni o'rganishda payg'ambar Zaratushtra faoliyati va zardushtiylik dinining vujudga kelishi muammosiga e'tibor beriladi.

Zaratushtra (yunoncha – Zoroastr, o'rta fors tilida – Zardusht)ning nomi qadimgi Eron Zraushtra so'zidan kelib chiqqan. «Zar» - bu oltin, «ushtra» tuya yoki uch xil ma'noda – «Oltintuyali», «Oltin tuya egasi», «Tuyalar yetaklagan odam» deb tarjima qilinadi. Gap shundaki, "Avesto"ning yaratilishi davlat arbobi va qonunshunos, din ilohiyotchisi sifatida Zaotar va Otarbon unvonlari sohibi, o'z davida «payg'ambar» (ezgulik haqida xabar beruvchi) sifatida shuhrat qozongan Spitamon nomi bilan bog'liq bo'lib, Spitamon Zardusht tahminan m.avv. 630-553 yoki 618-341 yillarda yashagan davrda Markaziy Osiyoda ko'chmanchilik inqirozga uchrab, Turonu Eronda el bo'lib, o'troq yashay boshlagan: turkiylar, forsiylar, derbiklar, baktriyaliklar o'troq hayotga moslashib, dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilikka o'ta boshlaganlar va qadimgi shahar viloyatlariga asos bo'lishgan edi. Patriarxal urug' jamoasi munosabatlari o'rnini markazlashgan davlat tizimi egallashi bilan xarakterlanadi.

"Avesto"da inson ijtimoiy mehnati tufayli barcha yomonlikdan, yovuzlikdan qutulishi mumkinligi g'oyasi yotadi. Dehqonchilikdagi mehnat yaxshilikning yuzaga chiqishida va insonni qayta tarbiyalashda asosiy omil Axuramazda qonuniga bo'ysunish hisoblanadi. Kim g'alla eksa oliy janobdir. G'alla ekkan kishi ezgulik urug'ini sochadi. Demak, mehnat va tabiiy ehtiyoj tufayli insonlar birga yashashini ilgari so'radi.

"Avesto"da erkin, mo'tabar odam «adama» deb jamoa urug'lari, Erkin jamoa a'zosi «asna» ma'nosida qo'llanilgan. Boylik «gayta» deb, u mol bilan o'lchangan. Ijtimoiy tarkibi «nmana» – oila birligi bo'lib, uy, xonadon ma'nosida bo'lgan. Oila boshlig'i – Nmanapati, Videvdat kitobida qul «vaysa», ya'ni urug' quli deb tilga olingan.

«Vira» nmana – katta oila xizmatkori deyilgan. "Avesto"da erkin jamoa

a'zolaridan kambag'allashgani – «parnaytar» cho'pon atamasi bilan yuritilib, uning kimgadir qaram, tobeligini bildiradi. «Vira, vaysa, parnaytar» – boshqa erkin a'zolarga nisbatan haq-huquqlari cheklangan. "Avesto"da jamiyat to'rtta asosiy qisimga bo'linadi. Uy, oila jamoasi –«nmana», «dmana», urug' jamoasi – «vis», «qabila», «zantu», qabilalar ittifoqi – «dahiyu» deb atalgan. Vis 15 tarixiy qarindosh nmanadan tashkil topgan. Visga qizning farzandlari kirmagan. Chunki vis mutlaqo patriarxal oila bo'lgan. Jamiyat iqtisodiy asosini urug'jamoasi tashkil etib, ijtimoiy-huquqiy vazifani bajargan. Mamlakatni idora qilgan shaxs «kavi» yoki «sastar» deb yuritilgan. «Sastar» so'zi orqali qabilalarning harbiy yo'l boshchisi tushunilgan.

Oqsoqollar kengashi – «varzanopati», «xanjamana»,

Xalq yig'ini majlisi – «vyaxa» deb yuritilgan.

Yashtning uchinchi bobida bunday xabar qilinadi: «Xudo Mitrani biz ulug'laysiz. Unga hyech kim yolg'on gapira olmaydi: uyda - oila boshlig'i, urug' oqsoqoli, qabila yo'l boshchisi va mamlakat sardori. Agar uy egas, urug' oqsoqoli yolg'onchi bo'lsa, g'azablangan Mitra butunlay oilani, urug'ni, qabilani, mamlakatni va ularning boshliqlarini tamoman yo'q qiladi. Oila, urug', qabila boshliqlari «pati» so'zi qo'shib nmanapati, vispati, daxiyupati deb ishlatilgan. Shu bilan birga mamlakatni idora qilgan shaxs «kavi» yoki «sastar» ham deb atalgan. "Avesto"da o'ch olish, garovga turish qoidalari bo'lib, u Vispati – urug'boshlig'i, sudya, diniy ustoz tomonidan tartibga solingan.

Barcha pati boshliqlari saylab qo'yilgan. Daxiyu ustidan – daxya sastar turgan. "Avesto"da qadimgi jamiyatning to'rt toifasini ajratib berilgan: kohinlar, jangchi askarlar, chorvadorlar va hunarmandlar (Yasna, 19 bob) "Avesto"ning eng qadimgi qabilalari chorvachilik bilan hayot kechirishgani haqida ham so'z yuritiladi.

Manbada keltirilgan ma'lumotlar Markaziy Osiyoda qabilalarning siyosiy birlashmasi tashkil topgan davrlarga (mil.avv. IX-YIII asrlar) mansub – Aryonam Vayjo, juda katta harbiy ahamiyatga ega deb ko'rsatiladi.

"Avesto"ga ko'ra Sharqiy Eron podsholarining ro'yxati quyidagicha: «Xaosh'yonx eroniylarining birinchi afsonaviy podshosi (Shohnomada-Xushang), keyin Yima (Jamshid) – podsho-podachi, S'yovarshon (Siyovush), Kavi Xaosrov (qay-Hisrov), Kavi Vishtasp.

Kavilar – podsholar sulolasidir.

Zardushtiylik dinida imon uch tayanchga asoslanadi: 1) fikrlar sofliigi; 2) so'zning sobitligi; 3) amallarning insoniyligi. "Avesto"da «Bergan so'zning uddasidan chiqish, unga sodiq qolish, savdo-sotiq va shartnomalarga qat'iy amal qilish, qarzni o'z vaqtida to'lash, aldamchilik va hiyonatdan holi bo'lish imonlilik alomatidir» - deyilgan. Hayotiga, sog'lig'iga va shaxsiga qarshi qaratilgan xatti-harakatlar eng og'ir jinoyatlar hisoblanib, bunday jinoyatlar podshoh tomonidan ko'rilib, hukm chiqarilgan. Mazkur jinoyatlar uchun o'lim jazosi qo'llanilgan. Ayrim hollarda jinoyat sodir etgan kishining oila a'zolari ham o'limga hukm etilgan.

"Avesto" qonunlari ijtimoiy va iqtisodiy hayotdan, ao'loq va dindan kelib chiqqan qarashlar, jamiyatdagi insonlarning o'zaro aloqalari tajribasiga asoslangan bo'lib, inson va jamoaning har kungi hayotini, ichki va tashqi munosabatlarini huquqiy nazorat qilishiga qaratilgan. Bunday yondoshuv dastavval nohaqlik va jinoyatga to'siq qo'yish, ularning oldini olish maqsadi bilan uzviy bog'langan.

Zardushtiylarning muqaddas kitobi «Avesto»da odamlarning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari ma'lum qonun-qoidalariga asoslanganligi haqida ma'lumot bor.

Agar kishilar Axura-Mazda yaratgan qonunlarga qat'iy amal qilsalar, haqiqat (adolat) va ezgulik yovuzlik ustidan tantana qilib boraveradi, deyiladi.

«Avesto»da ta'kidlaganidek, Sipiytmon Zardusht butun hayoti davomida Ezgu fikr, Ezgu kalom, Ezgu amal kabi axloqiy-huquqiy g'oyalarga rioya qiladi. Ulimdan so'ng marhum ustida o'tkaziladigan hisob-kitobda Haqiqat tangrisi (Ilohi) Roshnu ezgulik va yovuzlik ishlarini adolat tarozida salmoqlanib ko'radi.

«Avesto»da jamiyatning barcha a'zolari kim bo'lishidan qat'i nazar, ezgulikka intilishi lozimligi ta'kidlanadi.

Qadim Turondagi siyosiy va huquqiy ta'limotlarning keyingi davrlarda rivojlanishiga turtki bo'lgan omillardan biri Moniy va Mazdak g'oyalari hisoblanadi.

Zero, siyosiy ta'limotlarning xilma-xilligi siyosiy-huquqiy ta'limotlar tarixi rivojiga ma'lum darajada ta'sir etishini inkor etib bo'lmaydi. Barcha siyosiy ta'limotlarni bir tizimga solmoqchi bo'lsak, barcha davrlarga xos bo'lgan ijtimoiy, siyosiy va huquqiy muammolarga nisbatan bildirilgan ilg'or siyosiy fikrlarga duch kelinadi. Ana shunday o'z davri uchun ilg'or siyosiy-huquqiy qarashlarga quyidagi ta'limotlar misol bo'la oladi:

III asrda respublikamiz hududida keng tarqalgan moniychilikning siyosiy-huquqiy mafkurasining ayrim parchalari bizgacha yetib kelgan. Moniychilik Sharqda ilgari tarqalgan dinlar buddizm, otashparastlik va xristianlikka qarshi muxolif diniy oqim sifatida shakllangan. Moniychilik asoschisi Moniy bunday yozadi: "Oldingi dinlar faqat bitta mamlakatda va bitta tilda mavjud bo'lgan. Faqat mening dinim shunday xususiyatga egaki, unga istalgan mamlakatda, istalgan tilda e'tiqod qilishlari mumkin. Uni eng chekka mamlakatlarda ham targ'ib qiladilar. Moniychilikning markaziy g'oyasi ikki asos. Ziyo (yaxshilik) va Zulmat (yomonlik) o'rtasidagi kurash bo'lgan. Bu tabiat uchun ham, jamiyat uchun ham o'sos narsalardir. Ziyo (yaxshilik) siyosiy va huquq tiliga tarjima qilinganda hukmronlikning yaxshi, saxovatli shaklini, adolatlilik, qonuniylik, tinchlik, osoyishtalik, xalq haqida g'amxo'rlik va shu qabilarni anglatadi. Zulmat (yomonlik) esa - o'zboshimchalik, zo'ravonlik, istibdod, qonunsizlik, nohaqlik, urush, jinoyat, tartibsizlik va shu qabilardir.

Moniychilik siyosiy-huquqiy sohadagi butparastlik, zulm, qonunsizlik, ezish, jinoyatchilik, harakatsizlik va tengsizlikni qoralash bilan to'yingan. Moniy va uning izdoshlarining fikricha bu siyosiy-huquqiy illatlar abadiy emas. Ular ustidan ideal siyosiy-huquqiy tuzumning asosiy prinsiplari bo'lib qolishi

lozim bo'lgan odamlar o'rtasidagi adolatsizlik, qonuniylik, insoniylik, tenglik, tinchlik va do'stlik muqarrar g'olib keladi.

Moniy ta'limotida talangan va taxqirlangan dehqonlar ommasining talab va ideallari o'z aksini topgan. Umuman u dehqon demokratik tusda bo'lgan. "Ammo moniylik har qanday faol harakatni rad etgan va kurashning mahsulsiz passiv usullarini targ'ib qilgan, natijada u keyinchalik tushkunlik, tasavvub va hayotdan kechishni targ'ib qiluvchi turli mayda sektorlarga bo'linib ketgan.

2. "Avesto"dagi siyosiy-huquqiy g'oyalar. Ijtimoiy-iqtisodiy tuzumning

tartibga solinishi.

Xorazmda shakllangan zardushtiylik ta'limoti asta-sekin Gava (So'g'diyona), Mouru (Marg'iyona), Baxti (Baqtriya), Niso (Parfiya), Harayva (Hirot), Voixa — Girta (Qobul), Avrava (Tus), Xninta (Gurgon), Xiyrmand (Gilmand), Ray (hozirgi Tehron atroflari), Chaxra (Xuroson), Varina (Kaspiy dengizi janubi), Xaftrud (Hind daryosi boshlanish qismi — Panjob hududi), Ranxa (Ganga daryosi sohili), Mesopotamiya (hozirgi Suriya va Iroq), qadimgi Bobil va Ashshur, Arabiston yarim oroli, Kichik Osiyo (hozirgi Turkiya — qadimgi Vizantiya), hatto qadim Yunoniston va Rim (hozirgi Italiya) mintaqasiga etib borib, o'sha hududlarda yashagan qavmlarning diniy va dunyoviy mafkurasi, ma'naviyati, ilm-fani, davlatchiligi, ijtimoiy-siyosiy tuzumiga o'z ta'sirini ko'rsatgan.

"Avesto"da bayon etilishicha eramizdan oldingi II ming yillik o'rtalarida yashagan turkiylar, forsiylar, hindular, isaklar, debriklar, oslar, toxarlar, daxlar, massagetlar, baqtriyaliklar, parkanaliklar, chochliklar va boshqa qavmlarning aksariyat ko'pchiligi chorvador ko'chmanchilikdan o'troq hayotga o'tib, dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullana boshlashgan. Bu esa qadimgi Xorazm, So'g'd, Marv, Balx, Nisoya, Hirot, Parfiya va boshqa hududlarda markazlashgan davlat boshqaruvi tizimining huquqiy asoslarini vujudga kelishiga sharoit yaratdi. Jumladan, "Avesto"ning "Vandidod" kitobida Oliy tangri Ahura

Mazda yaratgan o'n oltita zaminning hududiy—ma'muriy va siyosiy boshqaruv hamda qonunchilik tizimiga oid ma'lumotlar berilgan.

Davlatni kavi, ya'ni muhim ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va huquqiy masalalarni o'zida mujassamlashtirgan shoh boshqargan. "Kavi"ning davlatni boshqarish huquqining belgilanishida "fair" ("Avesto" tilida "xvarno") printsiptiga qonuniy asos sifatida amal qilingan. "Avesto"da "Xvarno" shoh hokimiyati ramzini bildirib, shohlik ulug'vorligi bilan bog'lanib ketadi. U "Kavi"ga ilohiy farog'atni va hukmronlik uchun qonuniy huquqni ta'minlaydi.

O'z navbatida davlatni boshqarish sulolaning bir vakilidan ikkinchisiga meros sifatida o'tishi diniy va dunyoviy jihatdan qonunlashtirilgan. "Bu manzil hech qachon Farming xushligi, tiriklik zavqi, farzandlar, abadiy va ezgu a'molli ashavanlar sarvari Ashadan xoli bo'lmasin"!,— deyiladi "Avesto"da.

Davlatni boshqaruv tizimi oilalarning birlashmasi - "nmana", uy-oila jamoasi

— "dmana", katta oila jamoasi oqsoqoli — "nmanapati", urug'jamoasi boshlig'i

— "vis", katta qishloq oqsoqoli — "vispati", qabila boshlig'i — "zantupati", viloyat hokimi — "daxiyupati", bir necha viloyatlarning hukmdori va qabilalarning harbiy sarkardasi — "daxiyusastar"lardan tashkil topgan. Qonun chiqaruvchi Oliy organ — Oqsoqollar kengashi — "varzanapati", (Qabilalar ittifoqi — "xanjamona" va Xalq Majlisi — "v'yaxa"dan iborat bo'lgan. Oqsoqollar kengashining mo'tabar ulamosi — kohin oliy sud'ya vazifasini bajargan. "Zaratushtroema" deb atalgan bu oliy sud'ya chiqargan hukmga hech kimning e'tiroz bildirishga haqqi bo'lmagan.

"Varzanapati" diniy mafkura va hokimiyat boshqaruviga mas'ul bo'lib, u jamoa faoliyatidagi diniy ijtimoiy-huquqiy va xo'jalik masalalarini hal etgan. "Nmanapati" oila jamoasi uchun diniy boshliq hisoblangan. "Vis" ham urug' jamoasi boshlig'i sifatida ijtimoiy-huquqiy vazifalarni bajargan. U katta oila jamoasi oqsoqollari orasidan saylanib, urug' jamoasi boshlig'i, sud'ya, kohin va jamoa rahnamosi hisoblangan. "Daxiyusastar"lar bir necha qabilalar yashaydigan ma'muriy hududga, viloyatlarga boshliq vazifasini ham bajargan. Ular tomonidan chiqarilgan bar qanday nizom va buyruqlar jamoa a'zolari uchun qat'iy belgilangan qonun vazifasini o'tagan.

Ilk davlatchilik shakllanishining dastlabki asosi bo'lib uy-qo'rg'onlar, qal'a, shahar xizmat qilgan. O'z navbatida ular ichki qal'a, guzarlar, ustaxonalar, savdo-sotiq joylari, bozorlar umuman, shahar markazi, atrofi, uy- qo'rg'onlardan tashkil topgan

Tahlillar "Avesto"da tasvirlangan va Markaziy Osiyo hududida shakllangan ilk davlatchilik asoslarining vujudga kelish jarayoni uch davrga bo'linganligini ko'rsatadi:

Birinchi davr — eng qadimgi davr bo'lib, bunda adolat va insoniy baxt-saodat hukmron bo'lgan.

Ikkinchi davr — yaxshilik ruhlari bilan yomonlik ruhlari o'rtasidagi adolat uchun kurash davom etgan.

Uchinchi davrda aql-idrok va adolat tantana qilib, dehqonlar badavlat, davlatning siyosiy va qonunchilik tizimi mustahkam bo'lishi uchun "Yaxshilik ta'limini va sadoqatini amalga oshirib, yaxshi hokimlar hukm yuritaversinlar. Odamlarga va ularning avlodlariga baxt-saodat keltiradigan adolatli qonunlarni amalga oshirsinlar" deyiladi "Avesto"da. ("Yasna", 48).

Zardushtiyluk ta'limotiga ko'ra, yolg'on gapirib guvohlik berish, birovni aldash gunoh, ya'ni jinoyat hisoblangan: "Yolg'on gapirib tirik qolgandan ko'ra, rost gapirib o'lgan yaxshi", deyiladi "Avesto"da.

Zardushtiyluk ta'limotida rostlik va haqiqat uchta ma'naviy—huquqiy tayanchga asoslanadi: **ezgu fikr, ezgu kalom** (so'z), **ezgu amal (ish)**. Zardusht davlatni adolatli qonunlar asosida boshqarib, bu uchlikka amal qilgan kishi yolg'onchilik va adolatsizlik peshvosi Axriman (Anxura-Manu) ning mag'lubiyatga uchrashiga ishonsa, qalbi haddan ziyoda pokiza bo'ladi, deb uqtiradi: "Men yaxshi fikr, yaxshi so'z, yaxshi ishga shon-shavkat baxsh etaman. Men yaxshilikdan iborat Ahura Mazda qonuniga shon-shavkat baxsh etaman" ("Yasna", 14). Demak, "Yaxshi fikr", deganda ilohiy qonun ruhida yaqin kishisiga mehribon bo'lish, muhtojlarga ko'maklashish, yovuzlikka qarshi kurashishga doim tayyor turish, kishilarning baxt-saodati uchun harakat qilish, ahillik va do'stlik, totuvlikda yashashga intilish kabi niyatlar va fikrlar musaffoligi tushunilgan. Yaxshi niyatli kishi darg'azab bo'lmaydi va jaholatga berilmaydi. Agar jaholatga berilsa inson yaxshi niyatini yo'qotadi, burch va adolat haqida o'ylamay, nojo'ya harakatlar qilishi mumkin.

Ahura Mazda yaratgan qonunlarga kishilar qat'iy amal qilsalar, haqiqat (adolat) va ezgulik yovuzlik ustidan tantana qilib boraveradi, deyiladi. Mamlakat xavfsizligini saqlash uchun, Ahura Mazda qonunlariga sadoqatli, adolatli, so'zi ezgulik bo'lgani pokdomonlarga, xushxulq rostgo'ylarga homiylik qilib, yovuzlik, o'g'irlik va hasad qilgan kishilarni Oliy Tangri qahriga giriftor bo'lishdan ogohlantiradi:

*"Madh etaman ezgufikrat, ezgu kalom,
Ezgu amal Ha ezgufikrat, ezgu kalom,
Ezgu amalni jamiy ezgufikrat,
Ezgu kalom, ezgu amalga bag'ishlayman,
Jumlay yovuzftokrat, yovuz kalom vayovuz
amallardanyuz buraman"* (1-Yasht, Hurmuzd Yasht).

"Avesto"da ta'kidlanganidek, inson o'limidan so'ng o'tkaziladigan hisob-kitobda rabboniy zot Roshnu marhumning ezgu va yovuzlik ishlarini adolat tarozisida salmoqlab tortib ko'radi. Tarozining bir pallasiga marhumning hayotligidagi ezgu fikr, ezgu kalom va ezgu amallari, yaxshilik va halol ishlari, boshqasiga esa yovuzliklari qo'yiladi. Ezgulik og'irlik qilsa, marhum ruhi arshi a'loga — jannatga ko'tariladi, yovuzlik pallasiga og'irlik qilsa — do'zaxga tushadi. Shu jihatdan Ahura Mazdaning adolatli qonunlarida rabboniy zot Mitrani ulug'lash, ezgulik qilish talab etiladi:

*"Biz Mitraga topinamiz,
U so'zida sobitlarni,
Lqfzi halol kimsalarni,
Falokatdan saqlagaydir.
Halokatdan saqlagaydir"* (10-Yasht, Mehr Yasht, 22).

Agar uy egasi, urug¹ oqsoqoli, qabila boshlig'i va mamlakat sardori yolg'onchi bo'lsa, g'azablangan Mitra oilani, urug'ni, qabilani, mamlakatni va ularning boshliqlarini ham butunlay yo'q qiladi:

"Shafqatsizdir gar kimda-kim,

Yolg'onchidir, subutsizdir" (10-Yasht, Mehr Yasht, 26).

"Avesto"da kishilarning o'zaro muomala va munosabatlarida berilgan va'daning ustidan chiqish, majburiyat va qasamiga sodiq qolish odatiy qonun hisoblanganligini ko'ramiz. Agar qasam ichib ahd qilgan kishi o'z ahdini bajarmagan yoki buzgan bo'lsa, da'vogar o'z haqligini isbotlash uchun protsessual normalardan, ya'ni Ordaliya (sinash va jazolanish) dan foydalangan. Adolatli sud qilish uchun Ordaliyaning 33 usuli mavjud bo'lib, agar so'z qasami buzilsa, suv bilan sinash, agar shartnomaga oid bo'lsa, o't bilan sinash jarayonida, aybdorga o'zining haqligini isbotlashga imkon berilgan.

Ingliz avestoshunos olimasi Meri Boysning ko'rsatishicha, daryoga uloqtirib, Ordaliya o'tkazishning turlaridan biri — *Yajina valkayaga* binoan ayblanuvchi o'z yonida turgan kishining oyoqlarini ushlab turgan holda suvga sho'ng'igan.

Sho'ng'ish vaqtida u: "Varuna — haqiqat, meni himoya qil!", deb iltijo qilgan. Ana shu lahzada kamondan o'q uzilgan va bir chopqir kishi o'q ketidan yugurgan. Agar u o'qni ayblanuvchi suv tagida o'lib qolmasdan oldin keltirsa, rabboniy zoti Varuna jazolanuvchini avf etdi, deb hisoblashgan. Olov bilan sinash usullaridan birida ayblanuvchi o't yonib turgan tor yo'lakdan yugurib o'tishi lozim bo'lgan. Agarda tirik qolsa, rabboniy zoti Mitra nomidan uni aybsiz deb hisoblashgan. Bundan tashqari o't bilan sinashda ayblanuvchining yalang'och ko'kragiga eritilgan mis quyish usuli ham qo'llanilgan.

Meri Boysning yozishicha, Olov rabboniy zoti Atar tog'laridagi temirlarni eritib, olovsimon suyuqlikni yoki alangali daryoni (vulqon lavasiga qiyos etilgan bo'lsa ajabmas) er yuziga qaratadi. Har bir kishi bu daryodan kechib o'tishi lozim bo'ladi: haqiqatgo'y odamlar uchun olov yangi sog'ilgan sut daryosiga o'xshab qoladi, gunohkorlarning ichi eritilgan temir bilan to'lib yong'inga aylanadi. Gunohkor bandalar, buzg'unchilar va jaholat er yuzidan tamoman yo'q bo'ladi. Shundagina jamiyatda farovonlik, baxt-saodat, adolat, yaxshilik va ezgulik ustunlik qilib, ular odamlarning o'zaro muomala va munosabatlari bilan

bog'lanadil.

Ordaliyaning qaynab turgan suyuqlik (yog¹ yoki qaynoq suv) bilan sinash, muz bilan sinash, diniy marosimlarda qo'lda tutib turiladigan metall yoki saksovul daraxti novdalaridan yasalgan xivichlar bog'lami va Barsman bilan urib sinash, doimo yashil bo'lgan butasimon o'simlik — efedra shirasiga sut qo'shib tayyorlangan "haoma" ichimligini ichirib (mast qiladigan darajada emas) sinash kabi boshqa usullar ham mavjud bo'lgan.

Ordaliya sud jarayonlari natijasida Mitra va Varuna o'zlari qatl etadigan yoki afv etadiganlar taqdirini hal etganlar. Mitra va Varuna nomidan o'tkaziladigan Ordaliyalarda urug' va jamoa boshliqlari qatnashib, zardushtiylik qonun— qoidalarini yaxshi biladigan Oliy qohin — **Zaratushtroema** sud jarayonlarini olib borgan.

"Avesto"da jinoyat va jazo masalalari bar tomonlama tartibga solinganligini ko'ramiz. Jinoyatlar quyidagi turlarga bo'lingan: dinga qarshi jinoyat, shaxsga qarshi jinoyat, hayvonlarga qarshi jinoyat, mulkiy jinoyat, ahloqqa qarshi jinoyat, tabiatga qarshi jinoyat va hakoza (3-jadval).

Shuni alohida qayd etish lozimki, "Avesto"da jinoyat sub'ektlari sifatida odam ham, hayvon ham e'tirof etilgan. Jinoyat sub'ektlari tushunchasi asosida shaxsning biron bir dinga mansubligi yotadi. Odamlar jinoyatlar sub'ektlari sifatida dindor — mazdaparastlar va boshqa fikrlovchilarga bo'linadi. Eng awalo yovuzlik ilohi Anhra Manu (Axriman) tarafdorlari va mazdaparastlarga qarshi boshqa kurashayotganlar "devlarning devi emas, balki to'g'ridan to'g'ri qotil" deb tariflanadi. Shu bois ham *ezgufikr*, *ezgu kalom*, *ezgu amal* qoidalarini buzgan va yovuz fikrlovchilarga nisbatan o'limjazosi belgilangan.

Dinga qarshi jinoyatlar, qasddan qilingan jinoyatlar va takroriy jinoyatlar uchun ayniqsa qattiq jazo belgilangan: "Kimda-kim birovni urmoq qasdida otlansa — uning gunohi "**oshirimta**" deyilgan, ya'ni bir kishini urmoq qasdida qo'lga qurol-aslaha olgan shaxs jinoyati shunday deb yuritilgan ("Vandidod", 4-fargard, 17-band). "Kimda kim birovning boshi ustiga urmoq qasdida bostirib

kirsa, uning gunohi "**avauyrayshta**", ya'ni jahl ustida qo'lga qurol olib birovni unnoqchi bo'lgan shaxsning jinoyati shunday yuritilgan. "Kimda-kim g'araz bilan birovni urmoqqa qasd qilsa, uning gunohi "**aridush**" bo'lib, qasd qilgan mazlum qo'lidagi qurol bilan urmaydi, bordi-yu, urgan taqdirda uning zahmi uch kun ichida tuzalishi kerak". "Kimda kim besh marta ushbu gunohga qo'l ursa, u "**pishavtanu**", ya'ni gunohlari evaziga o'lim jazosiga mahkum etiladi: Agar kimda-kim etti marta "oshirimta" gunohi bilan bulg'ansa, ya'ni qo'lga qurol olib birovni urmoq qasdida "avauyrayshta" gunohi (jinoyati)ni etti marta sodir etsa, bunday aybdor shaxs to'qson qamchin bilan jazolangan.

Birovni qasddan urib, uning qonini to'kkan kimsani ellik qamchindan to'qson qamchingacha savalashgan. Shuningdek, agar kimki birovni urib suyagini sindirsa, jinoyatchiga nisbatan otning terisidan yasalgan qamchin bilan, etmishdan to'qson qamchingacha urish jazosi belgilangan.

Agar bir shaxs birovni kaltaklab, uni hushidan ketgizsa yoki ushbu jinoyatni qayta sodir etsa, jinoyatlar jami bo'yicha "**Aspahih ashatra**" ya'ni otning terisidan yasalgan qamchin bilan to'qson marta, yoki "**saravushu eharana**", ya'ni buqa terisidan to'qilgan qamchin bilan oltmish marta savalanadi.

"Avesto"da ahloqqa qarshi jinoyatlar kechirilmaydigan jinoyat deb tariflanadi. Jumladan, zinokorlik va bachchavozlik jinoyatini sodir etgan shaxsga hech qanday dalil-isbotsiz va guvohsiz hamda kohin — sud'yaning hukmisiz o'lim jazosi belgilanganligini ko'ramiz. Gunohkorni o'ldirgan kimsaning gardanida eng katta aybi bo'lsada, u avf etilgan. "Avesto"da shunday deyiladi:

"Ey, olamni yaratgan Zot!

Ey, Haqiqat!

Agar bir er boshqa er bilan zo'rlik qasdida bachchavozlik qilsa, jazosi qanday bo'ladi?

Ahura Mazda javobberdi:

— Bunday gunoh oqlanmaydi va unga hech qanday tovon ham yo'q".

"Avesto"da mulkiy jinoyatlar qatoriga o'g'irlik, bosqin-chilik, firibgarlik kiritiladi. Bunday jinoyatlarni sodir etganlarga olovda qizdirilgan temir qurollari jazosi bilan birga o'limjazosi ham qo'llanilgan.

"Avesto"da odamni mast qiluvchi ichimlik ichish ta'qiqlanmaganini ko'ramiz. Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, "haom" ichib hayotda shodu-hurramlik bilan yashash odamlar o'rtasida do'stona munosabatlarni mustahkamlasa, ba'zida odamni mast qiluvchi "haom" ichimligini ichirish orqali yomon ishlar bilan badnom bo'lib yurgan buzg'unchilarning aft-angorini, dilidagi nopoklikni fosh etish mumkin, deb hisoblaganlar:

Haomga sharaflar bo'lsin,

Kalom-so'zga sharaflar bo'lsin,

Va sharaflar bo'lsin taqvodor

Zardushtga.

Haomga sharaflar bo'lsin,

Har qanday mastlikdan keyin,

Qonxo'r g'azab keladir g'olib,

Haomning sharbatidan so'ng, I

Keladir Haq,

Kelar Haqiqat (17-Yasht, "Ard-Yasht", 5).

"Avesto"da tabiat unsurlari — er, olov, suv, havoni ifloslantirish, hayvonlar o'ligi u yoqda tursin, odamlar jasadini erga ko'mish, suvga oqizish, olovda yoqish og'ir gunohlar qatoriga kiritilgan. Bunday jinoyatni sodir etganlar 400-800 qamchin urib jazolangan. Qilgan jinoyati og'irroq bo'lsa, ya'ni pokiza suv va muqaddas olov qarshisida gustohlik qilsa bu odamning jazosi dunyoning jamiyki dardu-azoblaridan mudhishi — o'lim jazosidir. Yoxud bunday jinoyat qilganlarni oliy sud'ya — Zaratushtroema oqsoqollar kengashi a'zolari bilan bamaslahat adolatli qonunlar asosida katta jarima evaziga afv etish yoki qul sifatida ulardan jamoa ishlarida foydalanishga hukm qilgan.

"Avesto"da jamiyatning asosiy yacheykasi sifatida oilaga katta ahamiyat berilganligini ko'ramiz. Masalan, nikoh oliy jazosiga belgilanganligini ko'ramiz. Gunohkorni o'ldirgan tangri Ahura Mazdaga xush keluvchi ish, nikohsiz oila qurish esa eng og'ir gunoh deb hisoblangan. "Avesto"da ta'kidlanishicha, erkak kishi 15 yoshga to'lganda oila qurish huquqiga ega bo'lgan. Ammo erkak kishi uylanishi uchun awalo moddiy va ma'naviy tomondan to'q va jismonan baquwat bo'lishi lozim. Buning uchun u o'z vaqtida to'yib ovqatlanishi zarur, aks holda er kishi o'zining xizmat va erkaklik burchini ado etolmaydi: "Hech kim xo'raksiz Ashah qonunlariga amal qilish qudratiga ega emas. Omoch tortish qudratiga ega emas. Farzandlar dunyoga keltirish qudratiga ega emas" ("Yasna", 33, 3-band).

Agar erkak zurriyot qoldirish qobiliyatiga ega bo'lsa-yu, ammo uylanmasa, unga temirni olovda qizdirib tamg'a bosishar yoki beliga og'ir temir zanjir kamarni bog'lab yurishga majbur qilishardi. Er yuzida inson zurriyotining ko'payishiga qarshi chiqib, turmush qurmay yurgan qiz qopga solinib, unga 25 darra urilgan.

"Avesto"da ta'kidlanishicha, qizlarning turmushga chiqishi haqida ota-onalari va vasiylari qayg'urishlari lozim. "Vandidod" kitobida ota-onalar voyaga etgan o'z qizlarining oila qurish istagini bilgach, ularga sep berishlari majburiyati bayon etilgan: "Uning qalbini pokiza e'tiqod va muqaddas qonunga moyil qilsin, yaxshi yostiqdoshga intiq qilsin. Yosh qizaloqni qaddi-qomati, rangi-ro'yi har jihatdan benuqson bo'lsin. O'n besh yoshli qiz yaxshi obro'-e'tiborga, shan' va oltin zirakka ega bo'lib, u yaxshi e'tiqodli erga turmushga berilsin" ("Vandidod", XIV fargard, 64-67).

"Avesto"da Zardusht tomonidan o'zining kenja qizi Pourchistaning donishmand Yamaspa (Jomasp) bilan nikohiga bag'ishlab tuzilgan "to'y gohlari", shuningdek, boshqa nikohlanayotgan juftlarga murojaati keltiriladi ("Yasna", 53). Zardushtiylik qonunlarida taloq qilish qat'iyan taqiqlangan bo'lib, er-xotin sadoqatliligi ulug'langan.

"Avesto"da sud ishini yuritish va sudlov jarayoni masalalariga ham katta

e'tibor berilgan. Ahura Mazda qonunlari qo'llanganda qohinlar tomonidan haqiqat va o'ta poklik bilan barcha ko'rsatmalar tan olinganligi va ularga qat'iy amal qilinganligining guvohi bo'lamiz.

"Avesto"da mazdaparastlarning yaqin qarindoshlar va o'zga dindagilar bilan oila qurishi zardushtiylik odat qonuni bo'yicha qat'iyman etilganligi qayd etilgan. Kimki, bu qonunni buzsa, o'lim jazosiga mahkum qilingan. Zardusht Ahura Mazdadan "Serfarzand xonadonga nima berasan?" deb so'raganda u: "Bunday odamlarni o'z himoyamga olaman", deb javob beradi. Shuning uchun ham sernufuz oilalar va homilador ayollar jamoa tomonidan ijtimoiy himoya qilingan.

Ko'p bolali oilalarga davlat xazinasidan nafaqa tayinlangan va bir yo'la 2-3 tadan farzand tuqqan ayollarga imtiyozlar berilib, sigir yoki sariq tuya bilan mukofotlangan. Ayni paytda, ayol homilasini oldirish va tushirish gunoh deb hisoblangan. Zurriyodni hosil qilgan erkak va jonli bolani tushirishga ko'maklashgan doya-kampir homilador ayol bilan birga o'lim jazosiga mahkum etilgan. Shuningdek, ayol yoki oila boshlig'i hisoblangan erkak farzandlarini o'z holiga tashlab qo'yib sarson-sargardon qilsa, zinoga berilgan ayol yoki erkak kabi qamchin va darra bilan kaltaklash, hatto o'lim jazosi qo'llanilgan (bu tartib tushunchalar 3-jadvalda ko'rsatilgan).

Sud jarayoni haqiqat va poklik bilan bog'liq duolarni o'qish marosimi bilan boshlangan. Sudlanayotgan shaxslar jinoyat ishlari uchun jazolanishi va o'limga mahkum etilishi mumkin bo'lgan. Ba'zida sud majlislarida jinoyat ishi sifatida haqoratlangan shaxsni poklash bilan bog'liq fuqarolik ishlari ham ko'rilgan. Sudda ishni ko'rish va adolatli hal etishdan oldin, jinoyatchi yoki qonunni buzuvchining aybi, aybdorlik shakli — qasddan yoki ehtiyotsizlik tufayli, qattiq hayajon holatida, birinchi marta yoki takroran qoidani buzganligi, sudlanuvchi o'z aybini tan olishi, uning qaysi dinga mansubligi va boshqa holatlar aniqlangan. Jinoyatga sabab bo'lgan holatlarni aniqlashda guvohlik ko'rsatmalaridan foydalanilgan ("Vandidod", IV fargard, 164-168).

Xulosa shuki, "Avesto"dagi davlatchilik va qonunchilik tizimi o'z davrida jamiyat, fuqarolar va yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini boyitishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. "Avesto"da mujassam bo'lgan bu kabi tushuncha, yo'l-yo'riq, qat'iy xulosa va qonun kuchidagi fikrlar davlatning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy qudratini oshirishga xizmat qilgan. Bu muhim manbalar hozirgi kunda ham xolislikka, sezgirlikka, ogohlikka da'vat etib turadi.

"Avesto" kitobi ilk bor Xorazm hududida tashkil topgan o'zbek davlatchiligining siyosiy-huquqiy tuzumi to'g'risidagi ma'lumotlar berishi bilan bir qatorda, uning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari haqidagi muhim manba hisoblanadi. Zero, davlat siyosiy-huquqiy tizimining rivojlanishi, taraqqiyoti, uning mamlakat va aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'рни mavqei bilan belgilanadi. Bu boradagi munosabatlarda qanchalik, mushtaraklik, mutanosiblik mavjud bo'lsa ijtimoiy hayotda adolat va qonunchilik, iqtisodiy turmushda rivojlanish va farovonlikka erishiladi.

Hozirgi zamon iqtisodiyot nazariyasining ta'limotlariga asosan moddiy ishlab chiqarish va iste'mol sohalarida uy xo'jaligi va firma (korxona)lar iqtisodiy hayotdagi ijtimoiy talab va taklifning moddiy asoslari hisoblanadi. Davlatning iqtisodiyotdagi etakchilik roli tan olinadi va ma'qullanadi. Ushbu ta'limotlarning ayrim belgi va xususiyatlarini "Avesto"da ta'riflangan qadimgi 16 mamlakatning siyosiy-huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy boshqaruv tizimlarida u yoki bu shaklda mavjudligini ko'rish mumkin. Nisbatan yuqori iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotga olib boradigan o'troq hayot tarziga ko'chishning, sug'oriladigan dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik bilan shug'ullanishning samaradorligiga asoslanadi. Moddiy soha va tarmoqlarda mahsulotlarni jamoa a'zolari o'rtasida adolatli taqsimlanishi zarurligi ko'rsatib o'tiladi. "Avesto" da moddiy boyliklar yaratish eng yaxshi amal deb targ'ib qilinadi. Moddiy boyliklar ishlab chiqarish asosi bo'lgan ekin maydonlarini, chorva hayvonlarini ko'paytirish va asrashga da'vat qilinadi va bu borada zarur

tavsiyalar beriladi³.

"Avesto"da davlat boshqaruvining siyosiy-huquqiy, harbiy va ijtimoiy-iqtisodiy tamoyillari haqida fikrlar bor. Oila, xo'jaliklar, ularning birlashmasi — "nmana", uy, oilalar jamoasi — "dmana", katta oila jamoasi oqsoqoli — "vis", katta qishloq oqsoqoli — "vispati", qabila boshlig'i — "zantupati", viloyat xokimi — "daxiyupati", bir necha viloyatlar hukmdori va qabilalar harbiy boshlig'i — "daxiyusastar"lardan tashkil topgan qonun chiqaruvchi Oliy organ - Oqsoqollar kengashi yoki qabilalar Ittifoqi - **"varzanapati"** yoki **"Xanjamana"** va Xalq Majlisi - "v'yaxa" kabi tuzumlar orqali boshqarilgan.

Oqsoqollar kengashi — **"varzanapati"** jamiyatini diniy mafkura, hukmron g'oya va jamiyatni adolatli qonunlar asosida boshqarishga mas'ul bo'lib, jamoa faoliyatidagi ijtimoiy-huquqiy va xo'jalik-mulkiy masalalarini hal etgan. Urug' jamoasi boshlig'i — "vis" barcha muhim siyosiy huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni xududiy-ma'rifiy boshqaruv tizimida amalga oshirgan (bular 1 va 6-jadvallarda aks ettirilgan). Umuman, urug' jamoasi rivojlanishdagi taraqqiyotni, barqarorlik, hamjihatlik va jamoaning harbiy iqtisodiy qudratini mustahkamlashda ijtimoiy-iqtisodiy mulkiy munosabatlarning ahamiyati katta bo'lganligi e'tirof etiladi. Shu bilan birga, "Avesto"dagi ko'rsatmalar mazmunidan kamroq rivojlangan tovar-pul munosabatlari, jamoa dehqonchiligi, mahsulot ayirboshlash haqidagi masalalar ravshanlashadi.

Jamoaning asosiy boyliklari uning nufuzli ikki toifasiga mansub bo'lgan oqsoqollar, harbiy boshliqlar va mo"tabar shaxslar qo'lida to'plangan. Jamoaning erkin a'zolarini tashkil qilgan chorvadorlar, askarlar, hunarmandlar toifasining asosiy boyligi — chorva, ishlab chiqarish vositalari, qurol-anjomlari hisoblangan. Ayni chog'da "Vandidod"dagi ma'lumotlarga qaraganda odamlarning ko'chmas mol-mulklari, ya'ni o'zlari yashayotgan uylar, ekiladigan erlar va bog'lar, yirik va mayda shohli mollarning egalari bo'lishgan deb

¹ "Avesto". Tarixiy-adabiy yodgorlik. Asqar Mahkam taijimas. — T.: "Sharq", 2001, 114-223-betlar.

hisoblashga asos bor. Mulkchilik huquqi amalda egalik va foydalanish huquqi bilan cheklanmagan. U o'z ichiga boshqarish huquqini, ya'ni boshqa shaxs egaligiga topshirish, boshqa shaxs mulkiga shartnoma bilan egalik qilishni ham o'z ichiga oladi.

Boylik va xususiy mulk ma'nosini anglatadigan **"gayta"** atamasi "Avesto"da asosan mulkdor kishilarning moddiy ahvoli va farovonligini tariflashda ko'p ishlatilgan. Mulkiy munosabatlarda esa, "gayta", ya'ni xususiy mulk "vis" (urug')ga qarashli bo'lgan. "Vis"ga chorva va ziroat bilan mashg'ul va bir-birlariga qarindosh bo'lgan kamida 15 ta oilalar kirgan. Jamoaning asosiy boyligi chorva hisoblanib, xususiy mulk deyilganda esa, uy, hovli-joy, qal'a, qo'rg'onlar, yaylov, ekinzorlar, kanallar va boshqa boyliklar nazarda tutilgan.

Kishilarning mulkka egalik qilish, undan foydalanish va tasarruf qilish huquqi zardushtiylik qonun-qoidolari bilan tartibga solingan. O'g'irlik qilgan kishining faqat o'ziga tegishli mulklarigina emas, balki butun urug' jamoasi — "vis"ga tegishli bo'lgan mulklar musodara qilingan va lan'atlangan: "Mardud bo'lsin, yo'qolsin o'g'ri va qaroqchilar"!).

"Avesto"dagi kishilarning o'zaro iqtisodiy munosabatlarida o'z ahdida turish, berilgan va'daning ustidan chiqish, qasamga sodiq bo'lish, savdo-sotiq ishlarida majburiyat va shartnomalarga qat'iy amal qilish, omonatni, ya'ni qarzni o'z egasiga vaqtida qaytarish kabi shartnomaviy munosabatlarning shakli va ayirboshlash turlari haqidagi fikrlar muhim ahamiyatga ega. Zardushtiylik iqtisodiy qonunlariga ko'ra ikki xil majburiyat tan olinadi. Birinchidan, tantanali ravishda qasam ichish — **"varuna"ga** ko'ra kishining biron iqtisodiy majburiyatni olishi yoki olmasligi tushunilgan. Ikkinchidan, bu bitim yoki shartnoma hisoblanib, bunga ko'ra tomonlar o'zaro manfaatdorlik nuqtai nazaridan biron iqtisodiy munosabatlar to'g'risida kelishishgan. Ikkala holda ham kuch ichilgan qasamda yashiringan bo'lib, bu kuch ilohiy deb hisoblangan. Bu ilohiy kuch o'zaro shartnomalashgan odamga hamkorlik qiladi, o'z so'ziga qat'iy bo'lgan kishini qo'llab-quvatlaydi. Qasami va so'zida turmagan kishiiii esa

jazolaydi.

Berilgan so'z, olingan majburiyatga ko'ra qasamni qat'iy bajarish va birovdan olingan qarzni egasiga o'z vaqtida qaytarish zardushtiylik e'tiqodi bo'yicha juda ham qadrlangan: "Kimda-kim qarzni o'z egasiga qaytarmasa, uning bu amali o'sha omonatni o'g'irlagan bilan barobar bo'ladi. Qarz olgan kishi omonatni uyida saqlasa, har kun va har tun unga qo'l ura va o'ziniki deb gumon qilsa, uning bu amali omonatni ikkinchi marta o'g'irlagan bilan barobardir" *.

"Vandidod"ning IV fargardida shartnomalarning bir-biridan farq qiluvchi quyidagi olti turi qayd etilgan:

— Ey, diinyoni yaratgan Zot! Ey Haqiqat!

Qasamlarning sanog'i nechadir? Ahura Mazda javob berdi:

— Mening qasamlarim oltita:

birinchi —so'z qasami;

ikkinchi —qo'l qasami;

uchinchi — qo'y qasami;

to'rtinchi —sigir qasami;

beshinchi —odam qasami;

oltinchi — ekin qasami; Bu eng yaxshi, eng obod, eng serhosil zamindagi ekin.

Kimda-kim so'z qasamini yolg'iz so'zning o'zi deb tasvir etsa, uni qo'l qasami bilan tuzatishi va qo'l qasamining tovonini to'lashi kerak.

Qo'l qasamini qo'y qasami bilan tuzatishi va sigir qasamini uning o'rniga berishi kerak.

Qo'y qasamini sigir qasami bilan tuzatishi va sigir qasamini uning o'rniga berishi kerak.

Sigir qasamini odam qasami bilan o'zgartirishi va uning o'rniga odam qasamini berishi kerak.

Odam qasamini ekin qasami bilan isloh qilishi va ekin qasamini uning o'rniga berishi kerak.

— Ey dunyoni yaratgan Zot!

— Ey Haqiqat!

Kimda-kim so'z qasamini buzsa, bu gunoh uchun giriftor bo'ladigan jazosining andozasi nechukdir?

Ahura Mazda javob berdi:

— Uning va eng yaqin qarindoshlari gunohining tovonini o'sha qasam bahosining olti yuztasiga tengdir.

— Ey, dunyoni yaratgan Zot!

— Ey Haqiqat!

Kimda — kim qo'y qasamini buzsa, bu gunohi uchun giriftor bo'ladigan jazosining andazasi nechukdir?

Ahura Mazda javob berdi:

— Uning va eng yaqin qarindoshlari gunohining tovonini o'sha qasam bahosining etti yuztasiga tengdir.

— Ey, dunyoni yaratgan Zot! Ey Haqiqat!

Kimda-kim sigir qasamini buzsa, bu gunohi uchun giriftor bo'ladigan jazosining andazasi nechukdir?

Ahura Mazda javob berdi:

— Uning va eng yaqin qarindoshlari gunohining tovonini o'sha qasam bahosining sakkiz yuztasiga tengdir.

— Ey dunyoni yaratgan Zot! Ey Haqiqat!

Kimda — kim odam qasamini buzsa, bu gunohi uchun giriftor bo'ladigan jazosining andozasi nechukdir? Ahura Mazda javob berdi:

— Uning va eng yaqin qarindoshlari gunohining tovonini o'sha qasam bahosining to'qqiz yuztasiga tengdir.

— Ey, dunyoni yaratgan Zot! Ey Haqiqat!

Kimda — kim ekin qasamini buzsa, bu gunohi uchun giriftor bo'ladigan jazosining andazasi nechukdir? Ahura Mazda javob berdi:

— Uning va eng yaqin qarindoshlari gunohining tovonini o'sha qasam

bahosining mingtasiga tengdir.

— Ey, dunyoni yaratgan Zot!

Ey Haqiqat!

Kimda — kim so'z qasamini buzsa, gunohining jazosi nechuk?

Ahura Mazda javob berdi:

— Uch yuz qamchin aspah — hashatra bilan, uch yuz qamchin saravushu-charana bilan savalanadi.

— Ey, olamni yaratgan Zot!

— Ey Haqiqat!

Kimda — kim qo'l qasamini buzsa, gunohining jazosi nechuk?

Ahura Mazda javob berdi:

— Olti yuz qamchin aspahih-ashatra bilan olti yuz qamchin saravushu-charana bilan savalanadi.

— Ey olamni yaratgan Zot!

Ey Haqiqat!

Kimda — kim qo'y qasamini buzsa, gunohining jazosi nechuk?

Ahura Mazda javob berdi:

— Etti yuz qamchin aspahih-ashatra bilan, etti yuz qamchin saravushu-charana bilan savalanadi.

— Ey, olamni yaratgan Zot!

Ey Haqiqat!

Kimda — kim sigir qasamini buzsa, gunohining jazosi nechuk?

Ahura Mazda javob berdi:

— Sakkiz yuz qamchin aspahih-ashatra bilan, sakkiz yuz qamchin saravushu-charana bilan savalanadi.

— Ey, olamni yaratgan Zot!

Ey Haqiqat!

Kimda — kim ekin qasamini buzsa, gunohining jazosi nechuk?

Ahura Mazda javob berdi:

— Ming qamchin aspahih—ashatra bilan ming qamchin saravushu-charana bilan savalanadi "1 .

"Suv va yonib turgan olov qoshida qasamini buzgan odamning yozug'i avf etilmasdir".

Demak, shartnomaviy munosabatlarning xususiyatini ta'kidlash bilan birga, har bir bitimda awalgi bitimdagiga nisbatan qimmatliroq bo'lgan narsa-buyum qo'yilganki, bu awalgisining kafolatini ifodalagan. Har bir buzilgan yoki bajarilmagan shartnoma katta qiymatdagi yangi shartnoma bilan almashtirilgan. Bitim buzilgandajismoniy jazo ham qo'llanilgan. Shuningdek, kelishuvni buzgan kishining yaqin qarindoshlariga nisbatan ham jazo choralari belgilangan. Oila a'zolari o'rtasida kelishuvning buzilishi qasamni buzish bilan barobar hisoblangan. "Avesto"ning guvohlik berishicha, eru-xotin o'rtasidagi shartnomaga ellik karrali, kuyov bilan qaynota o'rtasidagi shartnoma sakson karrali, aka-ukalar o'rtasidagisi to'qson karrali, ota va o'g'il o'rtasidagi shartnoma esa yuz karrali hisoblangan. Bu kelishuvni buzgan kishini jazolashning asosiy choralariga, jumladan, tan jazosi berilgan.

"Avesto"da talqin etilishicha, insonda oliy mavjudot sifatida mehnat qilish, moddiy ne'matlar yaratish va ishlab chiqarish qobiliyati mavjud. Odamzod bu qobiliyatni ishga solmas ekan, u insoniy qiyofasini yo'qotadi, vahshiylashadi, yovuzlashadi. Shu bois ham mehnat inson barkamolligining asosiy sharti hisoblanadi va uning ma'naviy xulq-atvorini baholashda o'lchov mezon bo'lib, xizmat qiladi. Noz-ne'matlar mo'l bo'lishi uchun kishi mehnat qilishi, o'z qo'llari bilan moddiy boylik yaratishi zarur. Binobarin, Zardusht ta'limotiga ko'ra, dehqonchilik mehnati ezgulik namoyon bo'lishining asosiy shaklidir. "Kimda-kim bug'doy eksa, u Ashahni (Haqiqat) ekadi. U Mazda dinini yana va yana ko'kartiradi. U Mazda dinini yuzlab hamdu sano, nazru- niyoz va o'n minglab qurbonliklar bilan quwatlantirgandek qudratli qiladi"-^, deyiladi zardushtiylik ta'limotida.

Shunday qilib, "Avesto"da mehnat faqat moddiy ne'matlarni yaratish

manbai sifatida nazarda tutilmasdan, balki insonga manfaat, foyda, obro'-izzat, rohat-farog'at keltiradigan mo''jiza nuqtai-nazaridan baholanadi. Shuning uchuni ham ajdodlarimiz noz-ne'mat vositalari-chorva mollari go'sht-sut berish, ulardan turli-tuman oziq-ovqatlar tayyorlash mumkinligi, terisi kiyim-bosh vazifasini o'tashi, bug'doy va boshqa o'simliklar tayyor oziq-ovqat o'rniga o'tishi bilan qimmatli ekanligini tushunib etganlar.

"Vandidod"ning 13-14-boblarida erdan unumli foydalanish, uni ifloslantirishdan saqlash, sug'organda suvni tejash haqidagi odamlarning huquq va burchlari, ularga rioya qilmaslikning huquqiy oqibatlariga alohida o'rin ajratilgan. Dehqon ekinni sug'orishi mumkinligi, dehqonchilik bilan shug'ullanadigan har bir kishi bir belkurak kengligi va chuqurligidagi ariqqa sig'adigan suv olishga haqli ekanligi, suvni taqsimlash bilan koinlar shug'ullanishi ko'rsatilgan.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, ichimlik suv manbalari atrofida har xil matolarni yuvish, mol boqish, tuya va otlarni bog'lashga ruxsat etilmagan. Biron kishining ariq suvini ifloslantirganiga mirobning ko'zi tushsa, u ot terisidan yasalgan yoki tikanak qamchin bilan 25 bor qamchin urilib kaltaklash bilan jazolangan.

"Avesto"da daryolar, kanallar, suv shohobchalari haqida, urning meliorativ holatini saqlash borasida qimmatli fikrlar bayon etilganki, bunday dalillar va iqtisodiy o'gitlar biron-bir manbada uchramaydi. Jumladan, Ahura Mazda etti rabboniy zotdan biri, Ardvisura-Anaxitani to'rt oq ot qo'shilgan faytuni bilan zaminga yo'llar ekan, unga olamdagi eng yuksak tog' — Xukardan oqib keladigan, ming anhoru ming shahobchali suvi eng muqaddas va eng pokiza Farog' Kart daryosi (Amudaryo)ni o'z nazoratiga olishni topshiradi. Chunki Amudaryoni Tangri Ahura Mazda ikki sohilida bandalarim bog'u-rog'lar barpo etsin, ziroat ekib, bepayon bug'doyzorlar bunyod etib, keng yaylovlarda chorvachilikni rivojlantirsin deb yaratgan. Shuning uchun ham cho'lga suv chiqarib, urning sho'rini yuvib, zahini qochirib ishlov bergan, insonlar eng

mo"tabar zotlar hisoblanadi.

"Avesto"da talqin etilgan iqtisodiy shartnomalar va majburiyatlar, chorvani ko'paytirish, erdan unumli foydalanish, suvni tejash va uni qadrlash, suvning hayotbaxshligi, mo'l don-dun etishtirish moddiy ta'minot manbai ekanligi to'g'risidagi iqtisodiy bilimlardan iborat bo'lib, ular urug' jamoasining iqtisodiy turmush sharoitini yaxshilashga va moddiy farovonligini ta'minlashga qaratilgan.

Demak "Avesto" asarining eng muhim g'oyalaridan yana biri shuki, ijtimoiy-iqtisodiy tartib-qoida va qonuniyatlarga amal qilish iqtisodiy barqarorlikka erishishga har qanday jamiyatni gullab-yashnashi, taraqqiyot sari yuz tutishiga olib keladi. Bu o'sha davrlardagi urug'chilik jamiyatiga xos xususiyat bo'lganligidan dalolat beradi.

3. "AVESTO"DA INSON HUQUQLARI

Zardushtiylik dini ijtimoiy taraqqiyot tarixida yakka xudolikni targ'ib etuvchi birinchi ta'liraot bo'libgina qolmay, balki dunyoviy dinlar orasida insoniyat taraqqiyotiga bevosita va bilvosita juda katta ta'sir ko'rsatgan mafkuraviy asosdir. Dastlabki insonparvarlik g'oyalari zardushtiylik dinining "Avesto" kitobidan o'rin olganligi guvohi bo'lamiz. Chunki Sipiytmon Zardushtning ta'limoti bu g'oyalarni birinchi bo'lib ilohiylashtirgan, uning asosiy qoidalari esa keyingi dunyoviy dinlar — yahudiylik, xristianlik (masihiy) va islomning aqidaviy va ibodat qoidalariga zamin bo'lganligini nazarda tutsak, u holda "Avesto" g'oyalarining necha ming yillardan beri insonlar taqdirini belgilashda katta nufuzga ega bo'lganini aniq his qilishimiz mumkin.

Zardusht ta'limotining insoniyat taraqqiyotidagi eng muhim va diqqatga sazovor jihatlaridan biri shundaki, agar masihiylikda "yovuzlikka qarshilik ko'rsatmaslik" g'oyasi targ'ib qilinsa, zardushtiylik dini yovuzlik bilan murosa qilishni emas, balki inson huquqlarini poymol etilishiga bor kuch bilan keskin qarshi kurashishga da'vat etadi: "Inson haqiqat va adolatga intilsin, odamzod baxtli-saodatli yashashga haqli, insonni hayotdan, haq-huquqidan mahrum qilishga hech kimning haqi yo'q!"

Zardusht ta'limotida insoniyat taraqqiyoti uchun eng muhim jihatlaridan yana biri shuki, u oddiy chorvadorlar va dehqonlarga murojaat qilib, odamzot chorvaning ko'payishiga, yaylovlarning gullab-yashnashiga yordam bergan taqdirdagina, dehqonchilik, chorvachilik, sug'orish ishlarida ishtiyoq bilan halol mehnat qilgandagina Ahura Mazdaning inoyatiga noil bo'lg'usidir. Bu bilan Zardusht oddiy zahmatkash insonning mehnat qilish huquqini ulug'laydi.

"Kimda-kim bug'doy eksa, u Ashani" (Haqiqat) ekadi. U Mazda dinini yuzlab hamdu sano, nazru-niyoz va o'n minglab qurbonliklar bilan quwatlantirgandek qudratli qiladi.

Qachonki egatlarda urug' etilsa, devlar o'rinlaridan qo'padilar.

Qachonki bug'doy gurkirab ko'karsa, devlar dahshatdan titray boshlaydilar.

Qachonki bug'doy un qilinsa, devlar nola chekadilar.

Qachonki bug'doy xirmonga uyulsa, devlar nobud bo'ladilar.

Qay bir xonadonda bug'doy bosh chiqarsa, u xonadonga devlar yaqinlasha olmaydi.

Qay bir xonadonda bug'doy ombori bo'lsa, go'yo qizdirilgan temir devlar bo'ynini chirmab tashlaydi" ("Vandidod", 3-fargard, 31-32 bandlar).

Xikmatga to'la bu so'zlarda tinch va osoyishta mehnat, insonning yaratuvchilik qudrati faqat olijanob amallar orqali odamzodda bar qanday yovuzliklardan xolos bo'lish tuyg'usi kuchli ekanligi o'z ifodasini topgan.

" Avesto"da jamoa mehnati va ularning insoniy huquqlari ham nazardan chetda qolmaganligini ko'ramiz. Jumladan, "Vandidod"da bayon etilishicha, erni xuddi qizni sevganday sevmok, unga yaxshi urug'lar sepmon, uni mo'1-ko'l hosil beruvchi onaga aylantirmok kerak. Shu bois Zardusht Ahura Mazdaga murojaat qilgan:

— "Ey, olamni yaratgan Zot! Ey, Haqiqat!

Zaminni hammadan ko'ra ko'proq baxtiyor qilgan to'rtinchi shaxs kim?

Ahura Mazda javob berdi:

— Ey, Sipiytmmon Zardusht!

U hammadan ko'p bug'doy, giyoh va mevali daraxtlar ekkan zotdir! U quruq erlarga suv chiqargan va suvli erlarni shudgor qilgan zotdir.

Uzoq zamon ekilmagan va omoch tegmagan zamin baxtsizdir. U omochni orzu qiladi. Bunday zamin balog'at pallasiga kirgan sohibjamol qizdir. Bu qiz farzand ko'rish va yaxshi yostiqdoshga intiqdir.

— Ey, Sipiytmmon Zardusht!

Kimda-kim zaminni chap va o'ng qo'l bilan, o'ng qo'l va chap qo'l bilan shudgor qilsa, zamin unga farovonlik baxsh etadi. U go'zal va pokiza qizga o'xshaydi. Bu qiz er xonadoniga kirib borib o'z to'shagida halol yostiqdoshiga farzandlar tug'ib

beradi. Zamin ham mo'1-ko'l mevalarini in'om etadi" 1 . Zardusht yana so'radi:

— Ey, dunyoni yaratgan Zot! Mazda dinini qanday taom to'yg'izadi? Ahura Mazda javob berdi:

— Ey Sipiytmon Zardusht!

Bug'doy taomi va bug'doy noni.

Ruhoniylar varjovand bug'doy ekishni mansarasini odamlarga o'rgatsinlar.

"Hech kim ho'raksiz Ashah qonunlariga amal qilish qudratiga ega emas.

Moddiy olamda xalq qilingan bar bir mavjudod emak bilan tirikdir, emaksiz o'likdir"¹.

Ko'rinadiki, Ahura Mazda dunyoni yaratib, erni, chorvani odamlarga taqsimlab, boshpana berib, ularni tinch mehnatdan rohatlanishga, bog' yaratishga, mol boqishga, dehqonchilik qilib, pokiza va osoyishta hayot kechirishga da'vat etadi. Zardusht ham o'z da'vatida mehnat qilishga maylsiz, insoniylik fazilatlaridan mahrum bo'lgan, bosqinchilik va o'g'rilik bilan shug'ullanuvchi razil odamlar qalbidagi zulmat va zolimlikni halol mehnat qilish orqali yo'qotish mumkinligiga ishontiradi:

— "Ey, Sipiytmon Zardusht!

Kimda-kim zaminni chap va o'ng qo'l bilan, o'ng va chap qo'l bilan shudgor qilmasa, zamin unga shunday deydi:

— Ey mard! Ey, meni chap va o'ng qo'l bilan, o'ng va chap qo'l bilan shudgor qilmagan zot!

Sen begonalar eshigi ostonasida non istovchilar bilan birga bo'lursan. Ko'zlaring yo'l ko'radi. Ular seni eshigi ostonasidan haydab yuboradilar"².

Zardusht bilan Ahura Mazda o'rtasidagi musohabalarda insonning ma'naviy jihatdan pok bo'lishi, yaxshilikka va ezgulikka amal qilishi talab etiladi. Ezgulik va baxt-saodatga erishish yo'lida halol mehnat qilish, adolat va haqgo'ylik, bilan farovon hayotga erishish Ahura Mazda ta'limotining asosiy g'oyalaridan biridir.

"Avesto"da talqin etilishicha, insoning asosiy burchi haqqoniy hayot tarzini ta'minlashdan iborat bo'lishi kerak. Shuning uchun ham "Haqiqat oliy sharofatdir", deyiladi. Inson hamisha **"Ezgu fikrat, ezgu kalom, ezgu amal"**ga

qat'iy rioya qilmog'i va buni qalbida mujassam etmog'i zarur. Ana shundagina uning qalbi pokiza, ruhi madadkor, tafakkuri sog'lom bo'ladi. Ezgu fikr va niyatning yaxshiligi, barcha bilan tinch-totuv yashashga intilishdir. Ezgu fikr egasi jaholatga tushmaydi, chunki jaholatda kishi ezgu niyatlarini yo'qotadi, burch va adolatni unutadi, o'ylamay ish qiladi.

Zardusht ta'limotiga ko'ra, *yaxshi tushuncha, yaxshi fikr, ezgu niyat, latif so'z, yaxshi ishning birligi* deyilganda, faqiru-musofirlarga mehribonlik qilish, insonni o'z sha'niga isnod keltiradigan ishlardan, jumladan, birovga hasad qilishdan, o'g'rilik, talonchilik, o'zgalar molini o'zlashtirishdan, zinoga berilishdan, birovning dilini og'ritishdan, hayvonlarni qiynash va o'ldirishdan o'zini tiyish, bergan so'zining ustidan chiqish, e'tiqodiga sodiq qolish, qarzni o'z vaqtida to'lash, aldamchilik va xiyonatdan xoli bo'lish kabi insoniy fazilatlar tushunilgan.

Shunday qilib, Zardusht boylar uchun ham, kambag'allar uchun ham barobar bo'lgan **Ezgu fikrat, Ezgu kalom, Ezgu amal** kabi insonparvarlik tamoyil va aqidalarini yaratib, o'z oldiga tinchlik va adolatli qonunlar, insonparvarlik tartib-qoidolari qaror topgan, jamiyatda barchaga munosib farovon hayot nasib etishni oliy maqsad qilib qo'yadi. Zardushtiylik diniga e'tiqod qilgan o'z izdoshlari va qavmdoshlariga dunyo halovatlaridan, lazzat va kayfu safolaridan voz kechishni, riyozat chekib yashashni targ'ib etmaydi, aksincha, shodu xurramlik, yaxshi niyat, yaxshi amal inson hayotining mazmunini tashkil etmog'i zarurligini uqtiradi.

"Ey, hushyorlar!

Quloqlaringiz bilan puxta eshitingiz eng ezgu kalomlarni va yorug' niyat bilan — xoh er, xoh ayol — har biringiz nazar tashlangiz, to buyuk hodisa ro'y bermasdan va odimlarimiz so'nggi manzilga etmasdan ikki yo'ldan birinio'zingizga ixtiyor etingizda, bu kalomlarni o'zgalarga ham etkazingizlar".

Ana shu umuminsoniy qadriyatlar majmuasi esa o'sha davrdagi ajdodlarimiz tafakkuri asosini tashkil etgan. Bu g'oyalar asosida insonlarni bir-

biriga yaqinlashtiruvchi, tengma-teng qo'yuvchi ezgu niyatlar yotadi. Inson huquqlari ustivor mamlakatda tinchlik, osoyishtalik, farovonlik, taraqqiyot, kelajakka ishonch muqarrar ekanligi "Avesto" asarida ilgari surilgan hayotbaxsh g'oyalardir.

4. AVESTODA “ORDALIYA” INSTITUTI.

Qadimgi davr Markaziy Osiyo xalqlari huquqini o'rganishda "Avesto" katta ahamiyaga ega. Bundan tashqari, odat huquqlari, Ahamoniylar davrida yozma huquqiy manbalar, A.Makedonskiy va Yunon-Baqtriya podsholari, Salavkiylar davlati va Parfiyada esa Yunon-Rim huquqi ham qisman amal qilgan bo'lishi mumkin. Ahamoniylar podsholaridan Doroning Behistun qoyalaridagi yozuvlarida, kitobalarda bosib olingan o'lkalarda "qonun"lar joriy qilinganligi to'g'risidagi ma'lumotlar uchraydi. "Avesto"ning bir qancha she'rlarida kishilar o'rtasida talab qilinadigan xulq-atvor qoidalari, oila-nikoh masalalari, jinoyat va jazo, ayniqsa, protsessual normalardan ordaliya (sinab ko'rish, tekshirib ko'rish) haqidagi ko'rsatmalar diqqatga sazovor. Garchi Avestoning barcha qismlarida ijtimoiy-siyosiy va huquqiy tushdagi g'oyalar mavjud bo'lsada, aynan uning Vandidat qismi haqiqiy yuridik kompendiumi hisoblanadi⁴. "Avesto"da jazo berish "diniy-etnik qoidalarga bo'ysundirish maqsadidagi harakat" ma'nosida qo'llanilib, xatti-harakat uchun to'lovni anglatgan. Jazo, sinab ko'rish diniy-etnik qoidalar asosida olib borilgan. Zardo'shtiylik diniy aqidalariga ko'ra, insonda uchta etnik axloqiy unsur mavjud. Bular: ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu ish. Jinoyat ana shu unsurlar o'rtasidagi mutanosiblikning buzilishi bo'lib haqiqat esa (ashem boxu) eng yaxshi ezgulikdir.

Qonun yaratuvchilar va kohinlar juda katta ahamiyat bergan narsa – berilgan so'zning muqaddasligi edi. So'z –"asha" haqiqatning hayotiy ifodasi sifatida hurmatga sazovor. Ikki xil majburiyat tan olinadi. Birinchidan, tantanali ravishda qasam ichish (varuna)⁵, unga ko'ra, kishi biron harakatni sodir etish yoki etmaslik majburiyatini olgan. Ikkinchidan, bu bitim yoki shartnoma hisoblanib, mitra⁶ deb atalgan, unga ko'ra, tomonlar o'zaro biron narsa to'g'risida kelishgan. Ikkala holda ham qabul qilingan qasamda yashirincha kuch bo'lib, bu

¹ Э.В.Ртвеладзе, А.Х.Саидов., Е.В.Абдуллаев. Қадимги Ўзбекистон цивилизацияси: давлатчилик ва ҳуқуқ тарихидан лавҳалар. Т., «Адолат». 2001. – 216 б.

² Варуна – хинд-эрон сўзи "вер" – боғламоқ сўзининг ўзагидан.

³ Хинд-ориён сўзи "мей" – "алмашиш" мазмунида.

kuch ilohiy deb hisoblangan. U odamga hamkorlik qiladi, o‘z so‘zida qat’iy turgan kishini qo‘llab-quvvatlaydi, so‘zida turmagan kishini esa jazolaydi. Berilgan so‘z, olingan majburiyat, uning qat’iy turib bajarilishi Zardo‘shdiylik e’tiqodiga ko‘ra, nihoyatda qadrlangan. Diniy aqidalarga binoan, tabiatning alohida qonuni mavjud bo‘lib, u hamma narsaga tartib beradi, mazkur qonun rti (“Avesto”da “asha”) deb atalib, inson xulq-atvorini boshqaradi. Demak, “asha” faqat haqiqatnigina emas, ko‘proq axloqiy mazmunga ega bo‘lgan juda keng umumiy tushunchani anglatadi. Haqiqat, adolat, sodiqlik, jasurlik – insonga xos sifatlardir. Asha – bu haqiqat, tartib, huquqiylik va hokazo ko‘plab ma’nolarga ega. Yolg‘on gapirish, haqiqatni buzish “asha”ga ziddir. U drug (“Avesto”da “drux”) deb atalgan. Ahloqiy nisbatlar bo‘yicha kishilar an’yan – huquqiy mos va drugvat – unga qarshilarga bo‘lingan⁷.

Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi Avesto (“Qat’iy qonunlar”) bo‘lib, uning Devlarga qarshi qonunlar, ya’ni Videvdat (yoki Vendidat) atalgan qismida ko‘proq huquqiy masalalar o‘z ifodasini topgan.⁸ U 20 fargard, she’riy qismdan iborat bo‘lib, asosan muqaddas qoidalariga rioya qilmaslik uchun javobgarlik belgilashni nazarda tutgan bo‘lsa-da, eramizdan avvalgi 1 ming yillikdagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni tartibga solishga ham xizmat qilgan.

Kishilik jamiyati tarixining eng qadimgi – urug‘doshlik tuzumi yemirilishi, davlat va huquqning paydo bo‘lishi davridan boshlab yozma huquqning vujudga kelishigacha retsepsiya qilinib (qabullangan) olingan institutlaridan biri bu ordaliyadir (“Xudo sudi”, “sinab ko‘rish” ma’nolarini anglatadi).

Avestoda – jazo – “diniy-etnik qoidalariga bo‘ysindiruvchi harakat” ma’nosida qo‘llanilib, sodir etilgan qilmish uchun to‘lovni anglatgan. Jazo sinab ko‘rish “Ordaliya” shaklida ushbu qoidalar asosida olib borilgan.

Avestoda qasamning oltita turi keltirilgan: so‘z qasami, qo‘l qasami, qo‘y

⁴ Мэри Бойс. Зароастрийцы. Верования и обычаи, 2-е изд. М., “Наука”. 1988, 16-бет.

¹ Ртвеладзе Э.В., Саидов А.Х., Абдуллаев Е.В. Очерки по истории цивилизации древнего Узбекистана:

qasami, sigir qasami, odam qasami, ekin qasami keltirilgan (1U fargard). Ularni buzganlik uchun o'sha qasam bahosining ming barobarigacha tovon to'lash yoki tan jazosini nazarda tutadi.

Qasam ichib, ahd qilgan kishi o'z ahdini bajarmagan yoki uni buzgan hollarda haqligini isbotlash uchun ordaliya o'tkazib sinalgan. Uning juda ko'p turlari mavjud edi. Ular: o't bilan sinash ("Shohnoma"dagi Sudoba ig'vosidan o't bilan tozalanishi haqidagi hikoya), ko'kragiga qizigan temirni qo'yish kabilar. Agar so'z qasam to'g'risida bo'lsa, odatda, suv bilan, agar shartnomaga oid bo'lsa, o't bilan sinalib, aybdor yoki gumon qilinuvchining o'zi haqligini isbotlashiga imkon berilgan. M.Boys mana shunday ordaliya o'tkazishning turlaridan biri Yadjina valkayaning sanskrit tilidagi matnida keltirilganligini yozadi. Unga binoan, ayblanuvchi o'z yonida turgan kishining oyoqlarini ushlab turgan holda suvga sho'ng'igan. Sho'ng'ish vaqtida "Varuna haqiqatdan meni himoya qil" deb aytgan. Ana shu lahzada kamondan o'q uzilgan, shu payt chopar kishi o'q ketidan yugurgan, agar u o'qni aybdor suv ostida o'lgunga qadar keltirsa, qasam xudosi Varuna aybdorni afv etdi va oqladi, deb hisoblangan.

O't bilan sinashning shartlaridan biri shunday bo'lganki, aybdor yoki gumon qilinuvchi yonayotgan ikki qator palyonlar orasidagi tor yo'lakdan yugurib o'tishi lozim bo'lib, agar tirik qolsa, shartnoma xudosi Mitra uni aybsiz bildi yoki afv etdi, deb hisoblangan. O't bilan sinashda aybdorning yalang'och ko'kragiga eritilgan mis qo'yish shakli ham qo'llanilgan. Shuningdek, qaynab turgan suyuqlik (yog' yoki suv) bilan sinash, muz-suv bilan sinash, marosimlarni o'tkazish uchun tayyorlangan o'simlik shirasini ichirib sinash, daryo suviga uloqtirib sinash kabi usullar bo'lgan.

Haqiqatni yuzaga chiqarish yo'llaridan biri muqaddas sanalmish xaoma (doimo yashil bo'lgan butasimon efedra o'simligi shirasiga sut aralashtirib tayyorlangan) – insonni qo'zg'atadigan (mast qiladigan emas) ichimlik ichirib,

ordaliya – sinash o‘tkazilgan. “Avesto”ning tanlangan gimnlarida quyidagilarni o‘qiymiz:

Xaoma ichgandan so‘ng,

*Haqiqat izma-iz kelar*⁹.

Bundan tashqari, Zaroastr diniy marosimlarida qo‘lida tutib turiladigan xivichlar bog‘lami (metalldan yoki yulg‘un, anor novdalari ham) bo‘lishi mumkin. Barsman bilan urib sinash ham qo‘llanilar edi.

“Mamlakatni o‘z so‘zida turmaydigan haromilar buzadi, ular ezgulikka moyil kishilarni halok etadigan sotqinlardir. Spitamaga (urug‘ boshlig‘i) berilgan so‘zga sodiq bo‘l, shartnoma so‘zlari ikkala tomon uchun ham birdir”, – deyiladi Mitra gimnida.

Ordaliya sud jarayonlari natijasida Mitra va Varuna qatl qiladigan yoki afv etadigan tabiiy kuch – suv va o‘tni anglatadigan bo‘la boradi. U Varunash dengizi suvlarida yashaydi deb hisoblangan. Mitra esa o‘t xudosiga aylanib, barcha odamlar uni olovlar ichida eng kattasi bo‘lgan quyoshni, uning osmondagi kundalik harakati davrida kim shartnomaga sodiqlik bildirishini va kimlar uni buzishlarini kuzatib boradi, deb hisoblashgan. Ordaliya xudolar hohishining namoyon bo‘lishi sifatida gavdalantiriladi. Yuqoridagi ikkala xudoga qaratilgan va ular nomidan o‘tkaziladigan ordaliyalar favqulodda xavfli bo‘lib, ularni o‘tkazishda oliy kohinlar yoki jamoa boshliqlari qatnashishlari bois, qonunlarni biladigan donishmand kohin obrazi shakllana borgan. Buyuk xudo, donishmandlik xudosi Axuramazda (Axura – xudo, mazda – donishmandlik xojasi, podshosi ma'nolarida) to‘g‘risidagi tasavvurlar shulardan tug‘ilib, u Mitra va Varunadan ham yuqori turgan. Axuramazda barcha xudolar va insonlarning harakatlarini boshqaradi va rahbarlik qiladi, deb ishonishgan.

5. VANDIDODDA JINOYATAR TASNIFI.

Bizning kunlarimizgacha ulardan faqat oxirgi kitob Vandevdod (forscha

¹ *Қаранг:* Избр. Гимны. Пер. с англ. И. М. Стеблин Каменского. Душанбе. – “Адиб”, 1990. 112-бет.

Vendidat - «Devlarga qarshi qonun») yetib kelgan. Zardushtiylik huquqining ushbu yodgorligi zardushtiylik dini davlat maqomini, zardushtiylik esa davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni yo'qotgan davrda jamoa turmushi qattiq tartibga solinganligidan dalolat beradi. Shu sababli Vandidodning ko'plab huquqiy qoidalari Yaxve dini jamoasi alohida bo'la boshlagan davrda tuzilgan.

Shu bilan birga Vandidodning huquqiy qoidalari ancha dunyoviy zaminga xos xususiyatlarga egadir. Garchi Besh kitobda va Vandidodda qonunlar Xudoning kashfiyoti sifatida taqdim etilgan bo'lsa ham, tadqiqotchilar ushbu kashfiyotning xususiyatidagi tafovutini qayd etadilar.

Masalan, S.Ganbarov tomonidan yozilgan "Avesto"da siyosiy va huquqiy g'oyalar tadqiqotida Vandidodda jinoyatlar tasnifi misolida yaxshi ko'rish mumkin:

Birinchidan, dinga qarshi jinoyatlar: bid'at, boshqa din vakili bilan nikohga kirish, ruhoniylarning vazifasini qonunsiz bajarish,

Ikkinchidan, shaxsga qarshi jinoyatlar: qasddan hujum qilish yoki jazava holatida hujum qilish, tahdid qilish shifokorning zararli xatti-harakati, homiladorlik paytida ayolning sog'lig'iga qarshi jinoyatlar.

Uchinchidan, hayvonlarga ayniqsa kuchuklarga qarshi jinoyatlar.

To'rtinchidan, mulkiy jinoyatlar: o'g'irlik, talon-toroj, bosqinchilik, firibgarlik. Xasislik mulkiy jinoyatlarning alohida turi hisoblangan. Chunki «kimki adolatli iltimosni rad etsa ... aslida ashyo so'rayottan o'g'ri hisoblanadi».

Beshinchidan, axloqqa qarshi jinoyatlar: fohishabozlik, er-xotin xiyonati.

Bundan tashqari ko'rsatilmagan yordam ham qattiq jazolanadigan axloqiy jinoyat hisoblangan.

Oltinchidan, tabiat kuchlariga qarshi jinoyatlar: yerga, suvga, olovga va o'simlik dunyosiga qarshi jinoyatlar, ayniqsa yerning isloflanishi bilan bog'lik jinoyatlar. Tabiat kuchlarining o'zi va hayvonlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar to'g'risida maxsus to'xtab o'tilgan. Tabiat kuchlari va hayvonlar o'sha paytdagi zardushtiylik huquqida jinoyat ob'ektlarigina bo'lib qolmasdan, balki

sub'ektlari ham hisoblangan.

Moddiy unsurlar orasida «muqaddas»: olov, suv, yer, havo- Ezgulikka tegishli deb hisoblangan.

Ushbu davrda huquq uzil-kesil zardushtiylik ta'limotining ajralmas qismi sifatida e'tirof etilgan.

«Denkart» asarida Ahura Mazdaning kashfiyoti uch turga bo'linishi haqida so'z yuritiladi: - gazanig - oliy ma'naviy bilim va burch; darig (qonuniy) - dunyoviy bilim va dunyoviy burch; hada mapsrig - ushbu ikki soha (ya'ni sharhlar o'rtasida joylashgan barcha narsa),

Xisrav I (531-579 yy.) hukmronligi yillarida tuzilgan Sosoniylar qonunlari majmui – «Bir ming sud qarorlari kitobi»da huquqshunoslik kasbining katta diniy ahamiyati to'g'risida so'z yuritiladi.

Din va huquqning aloqasiga, jumladan sud ishlariga bunday qarash tasodifiy emas edi. Eronda kodekslashtirilgan huquq mavjud emas edi. «Denkart»ga muvofiq sudyalari (ular koshinlar tabaqasiga kirar edi) «Avesto» va Zinda («Avesto»ga forsha sharhlar) asosida qaror chiqarishlari kerak bo'lgan; oliy koshin (magupat) sudyalari va amaldorlarning har qanday qarorlarni bekor qilishi mumkin edi.

(«Xudo magupat qalbida uyg'otadiganga ustunlik berilsin). Buning ustiga «huquqni bilish» deganda umuman, huquqdan xabardor bo'lish emas, balki «Data»ni, «Avesto»ning huquqiy kitoblari to'plamini va Xisrav Anushirvon davrida bajarilgan «Avesto»ning pahlaviy sharhlarini bilish nazarda tutilgan.

Zardushtiylik huquqining yirik tadqiqotchisi A.Perixanyan «Avesto»da «ayollar huquqi» haqida qayd etadi.

Ayol kishi shaxsiy mulkka ega bo'lish huquqiga ega bo'lib, undan xayriya maqsadlarida mustaqil foydalanishi mumkin bo'lgan; shuningdek mustaqil ravishda da'vogar bo'lishi va guvoh sifatida ko'rsatmalar berishi mumkin bo'lgan.

Nikoh zardushtiylik huquqida unga kiruvchilarning ikki tomon-lama

xohishi natijasi bo'lib, faqat shundan keyin ota-onalar va vasiylar tomonidan tasdiqlangan. Oila monogam bo'lgan. Agar er sudda o'z xotinini bo'ysunmaslikda ayblagan taqdirda ham xotinning huquq-lari hisobga olingan. Shuni ta'kidlash lozimki, xotinning bo'ysun-masligi zardushtiylikda (o'sha davrdagi boshqa diniy tizimlarda bo'l-gani singari) og'ir gunohlardan biri hisoblangan. «Va urning buyru-g'ini bajarmaydigan xotinni, - deyiladi pahlaviy tilidagi nasihat beruvchi matnlardan birida, xotin deb hisoblamaslik kerak». Lekin shunga qaramay, bunday qilmish uch marta sodir etilishi va sud tartibida ommaviy ravishda z'lon qilinishi kerak bo'lgan. Faqat ana shundagana er rasmiy «bo'ysunmaslik to'g'isidagi hujjat»ni olishi va xotinga qarshi sud ishlarini boshlashi mumkin bo'lgan. Biroq ushbu holatda o'ziga yuklangan aybni omma oldida rad etish va o'zining aybdor emasligini isbotlash huquqi xotinda qolgan, chunki aks holda u o'ziga tegishli butun mol-mulkdan er foydasiga judo bo'lgan.

Bugungi kunda huquqshunolarimiz tomonidan tadqiq etilayotgan ilmiy tadqiqotlar inson huquqi muammolariga bag'ishlanayotgan bo'lsa, ushbu masalaning ilk yechimi sifatida yana «Avesto»ga murojaat etish mumkin. Jumladan, bolalarning huquqi to'g'risida «Avesto», - deb qayd etadi S.Ganbarov, - tug'ilgan va hali tug'ilmagan bolalar huquqlarini qat'iy muhofaza qiladi (Vandidod, XV, 36-39)», Voyaga yetmagan bolalarni ota-onalaridan olib ketish, vasiysiz qoldirish og'ir jinoyat sifatida qaralgan. Bolalarni juda yoshligidan fanlarga o'qitish tavsiya etilgan. «Agar sening o'g'ling bo'lsa, - deyiladi «Adurbada maslahat-lari»da, - uni bolaligidan maktabga ber, chunki o'qish - ko'zning nuri», deb qayd etgan. Ijtimoiy munosabatlarda o'sha davrlardagi boshqa dinlarda bo'lgani singari zardo'shtiylikda qulchilik qoralangan, biroq qul zardushtiylikda muayyan huquqlarga ega bo'lgan. Bir qator hollarda u o'z hukmdoriga qarshi da'vo qo'zg'ashi ham mumkin bo'lgan.

«Vandidod» o'zining IV fargardida shartnomalarning olti turini izoh etadi. Dastlabki ikki turi bir-birini tashqi shakliga ko'ra farq qilgan. «Vandidod» ularni og'zaki va'da qilish va qo'l berib ko'rishish bilan tuzishni buyuradi,

Shartnomaning qolgan turi ayirboshlov predmeti qiymatiga qarab ajratiladi. Chunonchi Vandidod normalari bir qoramol boshi, bir buqa, tuya qiymati, inson qiymati va nihoyat eng katta qiymat - yer qiymati kabi qimmatliklar toifalarini belgalaydi, bular tuziladigan shartnomaning muhimligi va katta bahosi haqida guvohlik beradi.

«Vandidod»ning IV fargard, 4-12 bandlar tahlili asosida shartnomaviy munosabatlarning xususiyatini ta'kidlash mumkin, zero har bir keyingi bitimda avvalgi bitimdagiga qaraganda, qimmatliroq bo'lgan ob'ekt qo'yilgan va u avvalgisining kafolati sifatida chiqqan.

«Vandidod»ga muvofiq, har bir buzilgan yoki bajarilmagan shartnoma katta qiymatdagi yangi shartnomani tuzish bilan almash-tirilishi zarur.

«Vandidod» jazolash tizimi bilan shartnomaning bajarilishini kafolatlaydi. «Vandidod» mutlaqo aniq qat'iy buyruq shaklida tuzilgan, agar bir tomon «bitimda aldagan bo'lsa» jismoniy jazolashni qo'llashni ko'rsatadi, IV fargardning 36-53 bandlari og'zaki bitimdaga aldaganlik uchun 300 marta tikanak bilan jazolashni va 300 ta kaltak-lashni, qo'l berishib tuzilgan bitim buzilgani uchun 600 marta tikanak bilan jazolashni, 600 marta kaltaklashni belgilagan.

Shuningdek, ahdni buzgan kishining yaqin qarindoshlarining gunohni yuvuvchi tavba-tazarru yaqinlariga masuliyatni ham belgi-laydi.

Yaqin qarindoshlarga nisbatan belgilangan jazo choralari ahdni buzgan kishini jazolashning asosiy choralariga jumladan, jismoniy jazolashga qo'shimcha hmsoblanadi.

«Avesto» bo'yicha qarindoshlar guruhlar tilga olinadi.

«Vandidod» qarindoshlikning to'qqiz bosqichini qayd etadi:

1) ota-onalar; 2) farzandlar; 3) aka-uka va opa-singillar; 4) bobo va buvi; 5) nevaralar; 6) tog'alar va xolalar; 7) amakivachchalar va amma-vachchalar; 8) jiyanlar; 9) aka-uka va opa-singal nevaralari. Zardusht ta'limotida qarindoshlik munosabatlari otaliq merosxo'rlik o'zaro huquq va majburiyatlar, qonunlarni

buzganlikdagi javobgarliklarni tartibga solishda katga ahamiyatga ega bo'lgan.

«Avesto»ni o'rganish natijasida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Jazo ma'lum uchlikni buzganlik sharoitlarida belgilanadi.
- 2 O'zga fikrlovchilar uchun qattiq jazo belgilanadi.
3. Qattiq jazo qasddan qilingan jinoyatlar, dinga qarshi ji-noyatlar, takroriy jinoyatlar uchun belgilanadi. Bunda jazo takroran qilingan jinoyatlar soniga qarab oshadi.

4.Jazoning bir turini boshqasi bilan birga qushish xarakterli hisoblanadi.

5. Ba'zi jinoyatlar «Avesto» bo'yicha kechirilmas hisoblanadi.

6. Jinoyatlarning ma'lum turi uchun jamoa javobgarligi belgi-langan, bunda oila a'zolaridan birining gunohi qarindoshlarga yoyiladi.

7. «Avesto»da jazodan ozod etish hollari ma'lum. «Avesto»da jazolashning ma'lum tizim belgilangan:

- a) o'lim jazosi;
- b) qamoqxonaga mahkum etish;
- v) jismoniy jazo;
- g) gunohni yuvish;
- d) qondoshlik o'chi.

«Avesto»ni o'rganish jinoyatlarni quyidagicha klassifikatsiya-lashni taklif etishga imkon beradi;

1. dinga qarshi jinoyat;
2. shaxsga qarshi jinoyat;
3. hayvonlarga qarshi jinoyat;
- 4 mulkiy jinoyat;.
- 5 axloqqa qarshi jinoyat;.
6. tabiat kuchlariga qarshi jinoyatch

«Avesto»da sud va sudda ishlarni ko'rish masalalariga ham katga e'tibor berilgan. Sud vazifalarini bajarish jamoa imtiyozi bo'lgan, deb o'ylash mumkin. Shu bilan birga «Avesto» odil sudlov uchun maxsus mo'ljallangan shaxslar

haqida shohidlik beradi.

«Vandidod» va «Yasna»da qonunni taqsimlovchi haqida tez-tez eslatamalar uchraydi. Eng avvalo bu Osha - haqgo'y tartibot. Bundan tashqari «Vandidod»da Ahura Mazda qonunlarini va tadqiqotchilar «qonun sud'yasi» sifatida talqin etuvchi o'qitishga chaqirilgan kohinlar nazarda tutilgan qonun o'qituvchilariga bir necha marotaba murojaatlar bor.

Sud jarayoni, «Avesto»dan ko'rinishicha, ma'lum marosimda, asosan duolar o'qish tegishli shaklda aytilishi bilan o'tkazilishi lozim.

Sudda ishni ko'rish, chamasi, muhobalashuv, ya'ni munozaralashuv tusida bo'lgan, ishni hal etishdan oldin qoida buzuvchining aybi qator masalalarni, aybdorlik shaklini - qasddan yoki ehtiyotsizlik tufaylimi, qattiq hayajon holatida, birinchi marta yoki takroran qoidani buzganlik, aybdor o'z aybini tan oladimi, aybdorning diniy mansubligi va boshqalar aniqlangan.

Avestoda jinoyatlar va ularga tayinlanadigan jazolarning ma'lum bir tizimi mavjud bo'lib ilmiy adabiyotlarda jinoyatlar quyidagicha guruhlangan:

a) Dinga qarshi qaratilgan jinoyatlar: diniy xurofot, boshqa din vakillari bilan nikohga kirish, dahriylik, qohin bo'lmagan shaxs tomonidan uning vakolatlarini bajarish; b) shaxsning hayoti qadr-qimmat. Ona va bola huquqlariga qarshi qaratilgan jinoyatlar: badanga shikast yetkazish, hujum va tahdid qilish homilani olib tashlash va boshqalar; v) hayvonlarga (asosan itlarga) qarshi qaratilgan jinoyatlar; g) Mulkiy jinoyatlar xasislik, o'g'rilik, boqinchilik, firibgarlik; d) axloqqa qarshi qaratilgan jinoyatlar gomoseksualizm, fohishabozlik, er-xotinlarning bevafoqlik qilishlari, yordam ko'rsatmaslik; ye) tabiat kuchlariga qarshi qaratilgan jinoyatlar¹⁰. Ularga tayinlanadigan jazolar o'lim jazosi, qamoqxonaga qamash, tan jazolari – ko'proq turli turdagi qamchi, xivich va kaltaklar (aspahih-ashatra va saravusha - charana) bilan turli darajalarda savalab, (asosan ikki turdagi qamchinlar bilan ming martagacha) jismoniy jazo berish,

¹⁰ Периханян А.Г. Общество и право в Иране в парфянский и Сасанидский периоды. – М., 1983. – с 248;

qondoshlik o'chini olish, keltirilgan zararni undirish – tovon to'lashlar bo'lib jazoning maqsadi gunohlarni yuvish hisoblangan.

Vandidodning XU fargardida o'lim jazosi – «qatl etish» («tanadini kesib tashlash», «temir keski bilan boshini tanidan judo qilish») jinoyatlar aniq keltirilgan. Bular: 1) zardushtiylik dinidagilarni bila turib boshqa e'tiqod va boshqa dinga o'rgatish; 2) uy yoki podani qo'riqlayotgan itga qattiq suyak yoki issiq ovqat berib buni natijasida it nobud bo'lsa; 3) itga qasddan jarohat yetkazish uni kaltaklash, mayib qilish; 4) homilador ayol bilan jinsiy aloqa qilsayu, buning natijasida homila nobud bo'lsa; 5) homilador ayol tomonidan qornidagi o'z bolasini nobud qilishi; 6) erkak kishining ayolning qornidagi «tiriklik mevasi bo'lgan» o'z bolasini tushirishga majburlashi, undashi (ular «oshkora qatl etiladilar», XU fargard, 2-bo'lim); 7) biror kampirga murojaat etib dorilar vositasida bolani tushirish (bunda ayol, erkak va shu ishni bajargan kampir ham aybdor hisoblangan); 8) o'z himoyasiga olishi shart bo'lgan bola va ayolni himoya qila olmagan erkak ular shikast topishgan hollarda ham o'lim jazosiga hukm qilingan¹¹. Tabiat kuchlari yer, suv, olov, o'simlik dunyosiga qarshi qaratilgan jinoyatlar ham, og'ir jinoyatlar qatoriga kirib, ularni qo'riqlash va asrashga Avesto katta ahamiyat beradi, chunki ularni bulg'ash ushbu jamiyat asoslarini yemirishi bilan barobar hisoblangan. Ayniqsa, yerga alohida g'amxo'rlik qilinib, ularni ifloslantirganlik uchun turli darajadagi tan jazolari qamchinlar bilan urushdan boshlab kechirilmaydigan jinoyat deb e'tirof etishgacha borgan.

“Avesto” atrof-muhitni, yer, suv, havoni ifloslantirishni jinoyat hisoblab, buning uchun 400 qamchi urib jazolashni nazarda tutadi. Bu xuddi qadimgi Misrda suvni muqaddas bilib, Nil daryosini ifloslantirganlik uchun o'lim jazosi belgilanganligiga o'xshab ketadi. Mazkur jazo tan jazosi va boshqa majburiyat

Шунингдек, А.Х.Саидов ва бошқарлар. Кўрсатилган асар., Т.: Адолат. 2001. – 218-219 бетлар.

²² Ушбу ўринда Вандидотнинг А.Маҳкам томонидан қилинган ва «Гулистон» журналида 1999-2000 йиллардаги сонларида босилган нусхасидан фойдаланилди.

bilan ham almashtirilishi mumkin edi. Bundan ko‘rinib turibdiki, “Avesto” huquq manbai sifatida ko‘pgina yuksak insoniy qadr-qimmatlar asosida ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga xizmat qilgan¹².

Avesto atrof-muhitni, yer, suv, havoni ifloslantirish jinoyat, deb bilib, unga jinoiy jazo 400 qamchi urib jazolashni nazarda tutadi. Bu xuddi qadimgi Misrda suvni muqaddas bilib, Nil daryosini ifloslantirganlik uchun o‘lim jazosi belgilanganligiga o‘xshaydi. Urug‘doshlik davriga oid ordaliya qoida va usullarining Misr, Vavilon, Xitoy, Hindiston kabi qadimgi Sharq davlatlarining, eramizdan avvalgi III-II minginchi yillariga oid qonunlarda mavjudligi, ularning Avestoda ham chuqur aks etganligi, Markaziy Osiyo xalqlari ijtimoiy-siyosiy rivojlanishi Sharq mamlakatlaridagi boshqa xalqlar bilan bir qonuniyatlarga ega bo‘lganligidan dalolat beradi.

Urug‘doshlik davriga oid ordaliya qoida va usullarining Misr, Bobil, Xitoy kabi qadimgi Sharq davlatlarining miloddan avvalgi III-II minginchi yillarga oid qonunlarida (masalan, Hamurabbi qonunlari) mavjudligi, shuningdek, mamlakatimiz doirasida yashagan qadimiy xalqlarning odat huquqlarida hamda ularning muqaddas kitobi “Avesto”da ham chuqur aks etganligi bu xalqlar ijtimoiy-siyosiy rivojlanishining Sharq mamlakatlaridagi boshqa xalqlar bilan bir xil qonuniyatlarga ega bo‘lganligidan dalolat beradi. Demak, miloddan avvalgi I minginchi yillardayoq mamlakatimizda davlatchilik asoslari qaror topib, mazkur jarayonda Xorazm, Baqtriya, Parfiya, Sug‘diyona, Farg‘ona (Davan) kabi siyosiy birliklarning o‘rni katta bo‘lganligini ko‘rish mumkin.

Xulosa

Qadimgi davrlarda boshqa davlatlarda bo‘lgani kabi Markaziy Osiyo

¹² Бу ҳақда яна батафсил қаранг: Ҳ.Бобоев, Ўзбек давлатчилиги тарихи, 1-китоб., Т., «Фан». 2004. – 49-

davlatlarida ham huquq dinga bog‘liq bo‘lgan. Afsonalarga ko‘ra eramizdan avvalgi 7 asrda yashagan Zardo‘st, Otashparastlik diniga asos soladi. Hozirgi O‘zbekiston hududida ham amal qilgan ushbu dinning muqaddas kitobi – Avestoning, huquqning tarixiy manbai sifatida ahamiyati juda katta bo‘lib, ko‘pchilik tadqiqotchilar fikriga ko‘ra. Avesto O‘rta Osiyoda, Xususan Xorazmda mil. Av. 1-ming yillikning 1-yarmida vujudga kelgan. Ayni vaqtda "Avesto" eng qadimiy va boshqa dinlarga asos bo‘lgan zardushtiylik dinining muqaddas kitobi ham hisoblanadi. “Avesto” O‘rta Osiyo, yeron, Ozarbayjon xalqlarining islomgacha davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, huquqiy tizimi va davlat qurilishini o‘rganishda muhim mabadir. Bu manbaa shu davrgacha turli xil nomlarda, jumladan Apastak, Ovisto, Ovusto, Abisto, Avasto kabi nomlar bilan ham yuritilib kelingan. Uning tarkibidagi materiallar qariyb ikki ming yil davomida vujudga kelib, avloddan-avlodga og‘zaki ravishda uzatilib kelingan. Zardushtiylik rasmiy din maqomini olgach bu asarning tarqalib ketgan bo‘laklari yig‘ila boshlangan va bular zardushtning o‘limidan keyin kitob holida jamlangan hamda “Avesto” – “O‘rnatilgan, qat’iy qilib belgilangan qonun qoidalar” deb nom olgan.

Bu qadimiy yozma manba bizgacha to‘liq holda yetib kelmagan. “Avesto” haqida Abu Rayhon Beruniy shunday yozadi: “Yilnoma kitoblarda shunday yozilgan: Podshoh Doro ibn Doro xazinasida 12000 qoramol terisiga tillo bilan yozilgan bir nusxa bor yedi. Iskandar otashxonalarni vayron qilib, unda xizmat etuvchilarni kuydirib yubordi. Shuning uchun o‘sha vaqtda Abistonning beshdan uchi yo‘qolib ketdi”. Yo‘qolib ketgan qismlari haqida bizga keyinchalik yaratilgan zardushtiylik adabiyoti orqali ma'lumotlar yetib kelgan. Bular jumlasiga “Bundaxishn”, “Shaxrixoi yeron”, “Dinkard” al Mas'udiyning “Maruj az-zaxab”, “Forsnoma” asarlari va boshqalar kiradi. Shunday qilib hozir bizgacha yetib kelgan “Avesto”, Beruniyning yozishicha aslining beshdan ikki

qismi xolos. U asli 21 “nask” bo‘lgan. Asarning mavjud qismlarini qaytadan to‘plash Arshakiylar davrida boshlanib Sosoniy qirol Shopur davrida tugallangan. Ana shundan hozirgacha ikkita qo‘lyozma nusxasi yetib kelgan va hozir shu ikki nusxa ham Hindistonning Mumbay va Kallikut shaharlarida saqlanadi. "Avesto" birinchi bo‘lib, XVIII asrda (1755-1761-yillarda) fransuz olimi Anketil Dyuperron tomonidan tarjima qilingan.

A.Dyuperron Hindistonning Gujarat viloyatida Eron zardushtiylarining avlodlari - parslarning urf-odatlarini va diniy marosimlari bilan tanishib chiqqan. Dyuperonning xizmati shundaki, u parslarning diniy yozuvlarini o‘qiy olgan, eng qadimgi 1288-yilda ko‘chirilgan qo‘lyozma nusxasini tarjima qilgan.

“Avesto” Katta va Kichik Avestolardan tashkil topgan.

Katta Avesto esa o‘z navbatida quyidagi uchta qismdan iborat bo‘lgan:

1. Yashna; 2. Videvdat; 3. Visparad.

Bularning ichida Avestoning “Videvdat” qismi huquqiy manba bo‘lib xizmat qiladi. U 22 bob (fargard)dan iborat bo‘lib, unda qadimgi zardushtiylar chiqargan qonunlar kishilarning induvidual va ijtimoiy huquqlari, shuningdek, odamlarning jamiyatdagi bir-biriga nisbatan tutgan o‘rinlari, axloq va odob, jinoyat va jazo, badanni va ruhni chiniqtirish, kishi o‘zini har xil nopokliklardan asrashi, tabiblik va tabib haqi, o‘likni yerga ko‘mib yerni harom qilgan yoki yolg‘on va'da bergan odamni jazolash, o‘liklarni qo‘yadigan daxmalar qurish, ko‘mish marosimi va o‘likdan yomon jinlarni quvish uchun yoniga it olib borish, it boqish va uni ehtiyot qilish, ayollarga munosabatda bo‘lish, soch va tirnoqlarni qachon olish va ularni toza saqlash, odamlarni g‘aflatdan uyg‘otuvchi xo‘roz haqida, suvning shifobaxshligi, chaqaloqni parvarishlash va hokazolar keng yoritilib o‘tilgan. Bu bobda quyosh xudosi Mitra yovuzlik va ezgulik o‘rtasidagi kurashning intiqosida hakamlilik vazifasini bajargan.

Avestoda huquqiy masalalarning tartibga solinishini shartli ravishda ikki tizimga tasniflashimiz mumkin:

1. Xususiy huquq masalalarining tartibga solinishi;

2. Ommaviy huquq masalalarining tartibga solinishi.

1. Xususiy huquq sohasida majburiyat huquqiga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, majburiyat huquqida qarzdor bo'lishlikni katta bir aybdorlik deb bilishgan. Bitimlar og'zaki va qasamyodga asoslangan hamda qiymatiga ko'ra o'zgargan kafolat sifatida qism va darajalarga tasniflangan. Bitim shartlarini bajarmagan tarafga, bitimning qiymatiga nisbatan yuqori miqdorda majburiyatni bajarishga majbur qilingan. Imkoniyati bo'lgani holda o'z vaqtida majburiyatini ataylab bajarmagan qarzdor o'g'ri hisoblangan.

Qadimgi huquq tizimlarida bo'lgani kabi, Avestoga ko'ra ham tan jarohati yetkazish xususiy huquq masalasini tashkil qilgan. Bir kishining boshqasiga nisbatan tajovuzi xivichlar bog'lami urish jasosiga hukm qilingan. Ushbu tajovuz qurolni o'qtalishdan boshlab, og'ir tan jarohati yetkazish hamda eshitish organining ishdan chiqarishgacha bo'lgan ijtimoiy havfli qilmishning yetti darajasigacha tasniflanishi kuzatiladi. Ushbu qilmishlarning jazosi beshdan 90 gacha xivich bog'lami bilan savalash edi. Ushbu jazodan tavon to'lab qutulish mumkin bo'lgan. Avesto talioniya (ko'zga-ko'z, tishga-tish tamoyili) institutini ham tan olgan.

2. Ommaviy huquq masalalarining tartibga solinishi.

“Avesto” da tilga olingan 16 ta davlat hududiy-ma'muriy va siyosiy-huquqiy tuzilishi aniq va ravshan bayon yetilgan, bunga ko'ra davlatni- podshoh "kavi" boshqargan, kavi muhim ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy masalalarni o'zida mujassamlashtirgan. Tarixchilarning fikriga ko'ra, "kavi"ning hukmdorlik huquqi belgilanishida "farr" (Avestoda Xvarno) asos sifatida qabul qilingan, ya'ni oliy dunyoviy hokimiyat sulolaning (vakildan ikkinchisiga o'tishida muayyan ilohiy belgi sodir bo'lar, ya'ni muayyan bir jonivor yoki yog'du shulasi hukmronlikka tanlangan kishilarni ko'rsatadi. Oilalarning birlashmasi, "nmana", uy, oila jamoasi “dmana”, katta oila jamoasi oqsoqoli “nmanapati”, urug' jamoasi boshlig'i “vis”, katta qishloq oqsoqoli "vispati" qabila boshlig'i "zantupati", viloyat hokimi “daxyupati” (bir necha

viloyatlarning boshlig'i va harbiy boshliq "daxiyu sastar"). Qonun chiqaruvchi organ oqsoqollar kengashi "varzanapati" deb, xalq Majlisi esa "vyaxa" deb atalgan. Oqsoqollar Kengashining uyushmasi kohin Oliy sudya vazifasini bajargan, uni "Zaraushtroema" deb atashgan, uning hukmi qat'iy bo'lgan, unga hyech kimning e'tiroz bildirishga haqqi bo'lmagan. Oqsoqollar kengashi-varzanapati qo'lida diniy mafkura va hokimiyat birlashgan. Ular jamoa faoliyatidagi ijtimoiy-huquqiy va xo'jalik masalalarini hal yetganlar. Katta oila jamoasi oqsoqoli "nmanapati" oila jamoasi uchun diniy va dunyoviy boshliq hisoblangan. "Vis" muhim ijtimoiy siyosiy va huquqiy vazifalarini bajargan. U katta oila jamoasi oqsoqollari "nmapati"lar ichidan saylanib, urug' jamoasi boshlig'i, qozi, diniy kohin, rahnamo hisoblangan. "Daoxiyu sastar"lar bir necha qabilalar yashaydigan ma'muriy hududni, viloyatlar va yirik o'lkani va harbiy qo'mondonlik boshqaruvi vazifasini bajargan. Ular tomonidan chiqarilgan har qanday nizomlar va buyruqlar jamoa a'zolari uchun muqaddas qonun vazifasini bajargan.

Bu malumotlardan ko'rinib turibdiki bu asar ilk davlatlarning davlat va huquqiy strukturasi mufassal o'rganishimizda eng to'liq va mukammal manba bo'lib xizmat qiladi.

Zardo'sht jamiyatni to'rtta sinfga bo'ladi Bular:

- A) Zodagon va harbiylar;
- B) Ruhoniylar;
- V) Chorvador, dehqon va hunarmandlar;
- G) Ko'chmanchilar.

Hindistondagi kastalar tizimidan farq qilgan holda ushbu sinflardan biridan ikkinchisiga o'tish mumkin bo'lgan. Dehqonchilik ibodat qilish bilan tenglashtirilgan. Cho'lni obod qilish eng ezgu ishlardan biri hisoblangan. Qarzini yoki soliqlarni to'lamagan shaxslar qulga aylantirilgan. Qulni ozod qilish mumkin bo'lmagan.

Avestoda jinoyatlar va ularga tayinlanadigan jazolarning ma'lum bir

tizimi mavjud bo‘lib ilmiy adabiyotlarda jinoyatlar quyidagicha guruhlangan:

a) Dinga qarshi qaratilgan jinoyatlar: diniy xurofot, boshqa din vakillari bilan nikohga kirish, dahriylik, qohin bo‘lmagan shaxs tomonidan uning vakolatlarini bajarish; b) shaxsning hayoti qadr-qimmati. Ona va bola huquqlariga qarshi qaratilgan jinoyatlar: badanga shikast yetkazish, hujum va tahdid qilish homilani olib tashlash va boshqalar; v) hayvonlarga (asosan itlarga) qarshi qaratilgan jinoyatlar; g) Mulkiy jinoyatlar xasislik, o‘g‘rilik, boqinchilik, firibgarlik; d) axloqqa qarshi qaratilgan jinoyatlar gomoseksualizm, fohishabozlik, er-xotinlarning bevafoqlik qilishlari, yordam ko‘rsatmaslik; ye) tabiat kuchlariga qarshi qaratilgan jinoyatlar. Ularga tayinlanadigan jazolar o‘lim jazosi, qamoqxonaga qamash, tan jazolari – ko‘proq turli turdagi qamchi, xivich va kaltaklar (aspahih-ashatra va saravusha - charana) bilan turli darajalarda savalab, (asosan ikki turdagi qamchinlar bilan ming martagacha) jismoniy jazo berish, qondoshlik o‘chini olish, keltirilgan zararni undirish – tovon to‘lashlar bo‘lib jazoning maqsadi gunohlarni yuvish hisoblangan.

Jinoyat jarayoni huquqida dalillar sifatida guvohlarning ko‘rsatmalari alohida ahamiyat kasb etgan. Qadimgi huquq tizimlarida bo‘lgani kabi Avestoga ko‘ra “Ordaliya” – sinab ko‘rish institutidan keng foydalanilgan. Suv bilan sinash, qaynab turgan suvdan oltin uzukni chiqarish, olov bilan sinash va h.k. shular jumlasidandir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. I.A.Karimovning "Avesto" kitobi yaratilganligining 2700 yitligiga

- bag'ishlanib barpo etilgan yodgorlik majmuini ochish marosimidagi "Ezgu fikr, ezgu amal, ezgu so'z ulug'langan kitob" mavzusidagi 2001 yil 3 noyabrdagi nutqi // "Xalq so'zi", 2000, 6 noyabr.
2. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. №1. Davlat milliy nashriyoti, 2000 y. B. 65.
 3. H.Boboev, O'zbek davlatchiligi tarixi, 1-kitob., T., «Fan». 2004. – 49-70 b.b;
 4. E.V.Rtveladze i dr. Ocherk po istorii sivilizatsii drevnego Uzbekistana: gosudarstvennost i pravo. T.: Adolat, 2000. 351 s.
 5. "Avesto". Tarixiy-adabiy yodgorlik. Asqar Mahkam tarjimasi. — T.: "Sharq", 2001, 89-bet.
 6. Perixanyan A.G. Obshchestvo i pravo v Irane v parfyanskiy i Sasanidskiy periody. – M., 1983.
 7. I.Jabborov. Antik madaniyat va ma'naviyat xazinasini. T., «O'zbekiston» 1999 y.
 8. T.Maxmudov. «Avesto» haqida. T., «Sharq» 2001 y.
 9. Toxir Karim. Muqaddas «Avesto» izidan T, Cho'lpon., 2000 y.
 10. X.Boboev. S.Xasanov T., «Avesto» ma'naviyatimiz sarchashmasi «Adolat» 2001 y.
 11. A.Saidov., J.Toshqulov O'zbekiston davlati va huquqi tarixi. IIV Akademiyasi. T., 1995 y
 12. «Avesto»- insonparvarlik va ezgulik chashmasi. T., «Kuch adolatda», 2000 yil, yanvar soni 7 b.
 13. Z.Muqimov. O'zbekiston davlati va huquqi tarixi. Samarqand.Zarafshon.1998.
 14. M.Hamidova. «O'zbekiston davlati va huquqi tarixi».O'quv qo'llanmasi. T.2005.

MUNDARIJA

Kirish.....	
Avestoning yaratilishi va tuzilishi.....	
“Avesto”dagi siyosiy-huquqiy g‘oyalar. Ijtimoiy - iqtisodiy tuzumning tartibga solinishi.....	
Avestoda inson huquqlari masalasi.....	
Avestoda “ordaliya” instituti.....	
Vandidodda jinoyatlar tasnifi.....	
Adabiyotlar ro‘yxati.....	